2020-yil 25-yanvardan chiqa boshlagan

Milliy tiklanishdan — milliy yuksalish sari

YANGI O‘ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 133 (922), 2023-yil 7-iyul, juma

www.yuz.uz yuz.uznews yuz_official yuz.uz_news

YANGI O‘ZBEKISTON RUHI

PREZIDENT SAYLOVI:

Mamlakatimizda joriy yilning 9-iyul, yakshanba kuni bo‘lib o‘tadigan muddatidan ilgari O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti sayloviga tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazishga doir ishlar yakuniga yetmoqda. Mamlakatimiz fuqarolari konstitutsiyaviy huquqlaridan foydalanib, erkin ovoz berishi uchun saylov uchastkalarida barcha sharoitlar yaratildi. 10 ming 784 ta saylov uchastkasi, jumladan, o‘ttiz to‘qqizta xorijiy davlatda tuzilgan 56 ta saylov uchastkasi ovoz berish uchun tayyorlab qo‘yildi. 19,5 milliondan ortiq saylovchi ro‘yxatga olindi.

KELAJAKKA BUYUK ISHONCH BILAN

Ulkan o‘zgarishlar

2023-yil 30-aprel kuni “O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi to‘g‘risida”gi konstitutsiyaviy qonun referendumda umumxalq ovoz berishi orqali qabul qilindi.

Bu referendum keyingi yillarda xalqimizning siyosiy ongi, huquqiy madaniyati va dunyoqarashi naqadar yuksalganini amalda ko‘rsatdi. Ushbu tarixiy tanlov orqali xalqimiz Konstitutsiyaviy islohotlarni to‘la qo‘llab-quvvatlashini yana bir bor namoyon etdi. El-yurtimizning ana shunday azm-u qarori asosida milliy davlatchiligimiz va iqtisodiyotimizni bundan keyin ham barqaror rivojlantirish uchun mustahkam zamin yaratildi.

Konstitutsiyaviy islohotlar samarasida xalqimiz va mamlakatimiz o‘z taraqqiyotining yangi, yanada yuksalish davriga qadam qo‘ydi. Yangilangan Konstitutsiya fuqarolarning saylash va saylanish huquqini yanada keng va to‘la ta’minlash hamda milliy saylov tizimini takomillashtirishga qaratilgan yangi moddalar bilan boyitildi.

Bu yilgi saylov birinchi marta mamlakatimizning yangilangan Konstitutsiyasi asosida o‘tadi va Taraqqiyot strategiyasida belgilangan vazifalarning amaldagi yana bir yorqin ifodasiga aylanadi.

Yangilangan Konstitutsiyaning talablaridan kelib chiqib, 2023-yilning 6-may kuni Saylov kodeksiga saylov qonunchiligini takomillashtirishga qaratilgan bir qator, jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi muddatidan ilgari o‘tkazilishini nazarda tutuvchi o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritildi.

Ushbu o‘zgartish va qo‘shimchalarga binoan saylov qonunchiligi takomillashtirilishi fuqarolarning saylov huquqi kafolatlarini, davlat va jamiyat boshqaruvidagi ishtirokini yanada keng ta’minlashda muhim omil bo‘ladi.

Yangilangan Konstitutsiyaga muvofiq, davlat rahbari muddatidan ilgari O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovini tayinlashga haqli.

Davomi 2-betda

2023 9-IYUL O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI SAYLOVI

Gazetamizning bugungi sonida O‘zbekiston Ekologik partiyasidan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentligiga nomzod Abdushukur Hamzayevning saylovoldi tashviqoti bo‘yicha maqola chop etilmoqda.

Mazkur maqola O‘zbekiston Respublikasi Prezidentligiga nomzodlarga saylovoldi tashviqoti uchun ajratilgan bepul nashr maydoni doirasida e’lon qilinmoqda.

3-betga qarang.

ADABIY ALOQALAR

Qaydasan, Istanbul...

Qo‘limda aviachipta. Ertaga Istanbulga uchaman — Turkiyaning Osiyo va Ovro‘pani tutashtirib turgan qadim va navqiron shahriga. U yerda “8th Istanbul publishing Fellowship” — 8-xalqaro Istanbul noshirlik kasbiy uchrashuvlari” tadbiri bo‘lib o‘tishi va men bir qancha hamrohlarim bilan shu tadbirda ishtirok etishim kerak.

ISTANBUL PUBLISHING FELLOWSHIP

DO‘STLIK GULIM SO‘LMAS MENING

Tun yarmidan oshgan. Bedorman. Odatim shunaqa, olis safar oldidan uyqum qochadi. Bu gal ham shunday bo‘ldi. Beixtiyor Xoja Ahmad Yassaviy bobomizning Turkiyadagi buyuk izdoshi Yunus Emroning “O‘lmas ko‘ngil” kitobini qo‘limga oldim. Bu kitob O‘zbekiston Prezidenti so‘zboshisi bilan yaqindagina nashrdan chiqqan edi. Dastlab ko‘zim tushgan satrlarni pichirlab o‘qidim:

Mening tilim qush tilidir,
Mening qo‘lim Do‘st qo‘lidir.
Men bulbulman, Do‘st gulimdir,
Do‘stlik gulim so‘lmas mening...

Satrdan-satrga, she’rdan-she’rga ko‘chib, mutolaa zavqi bilan vaqt o‘tganini, tong yorishganini ham sezmay qolibman...

Davomi 6-betda

"YANGI O‘ZBEKISTON: TARAQQIYOT, INNOVATSIYA VA MA’RIFAT"

XALQARO SHERIKLIK TASHABBUSLARI HAFTALIGI

MUSHTARAK MAQSADLAR YO‘LIDAGI HAMKORLIK

yangi imkoniyatlarga yo‘l ochadi

Shu kunlarda poytaxtimizda “Yangi O‘zbekiston: taraqqiyot, innovatsiya va ma’rifat” mavzusidagi xalqaro sheriklik tashabbuslari haftaligi bo‘lib o‘tyapti. Jahon hamjamiyatining diqqat-e’tiborini tortgan mazkur nufuzli xalqaro anjumanda dunyoning qariyb barcha qit’asidan 450 dan ziyod ekspert ishtirok etmoqda.

Xorijiy va milliy ekspertlar, tahlilchilar o‘rtasida yangi O‘zbekistondagi demokratik islohotlar, erishilgan yutuqlar, navbatdagi dolzarb vazifalar, mamlakatda vujudga kelayotgan mutlaqo yangi ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-huquqiy va ma’naviy-ma’rifiy makon va muhit, davlatning tashqi hamda ichki siyosatidagi ustuvor yo‘nalishlar yuzasidan fikr almashilayotgani haftalikdan o‘rin olgan tadbirlar mazmunini belgilaydi.

Haftalik doirasida “Yirik transport infratuzilma loyihalarini amalga oshirish tajribalari — iqtisod o‘sishining asosiy tamoyili” hamda “O‘zaro bog‘liqlikni barcha transport sohalarida rivojlantirish: dolzarb takliflar va yechimlar” mavzularida muloqotlar bo‘lib o‘tdi.

Davomi 5-betda

TAHLIL VA TAQQOS

DUNYODA TENGI YO‘Q TEXNOLOGIYALAR

Qadim zamonlardan buyon o‘zbeklar “tilla”, misrliklar “nub”, nemis va inglizlar “gold” deb ataydigan, keyinchalik Mendeleyev davriy jadvalining birinchi guruhidan joy olgan kimyoviy element bor. Au — uning formulasi. Bu belgi lotinchadagi “aurum” so‘zidan olingan va “sariq” degan ma’noni bildiradi. Ushbu element tabiatda nisbatan keng tarqalgan, otqindi (vulqondan otilib chiqqan moddalar sovishidan hosil bo‘lgan tog‘ jinslari), effuziv, metamorfik, cho‘kindi tog‘ jinslarida, shu bilan birga, alohida zarrachalar sifatida ham uchraydi. Insoniyat tomonidan minglab yillar davomida qadrlab kelingan, o‘zining rangi va qudrati bilan ayni kunda ham yuksak ahamiyatga ega bo‘lgan bu metall — oltin.

Davomi 4-betda

YANGI O‘ZBEKISTON RUHI

PREZIDENT SAYLOVI: KELAJAKKA BUYUK ISHONCH BILAN



Zayniddin NIZOMXO‘JAYEV,
O‘zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasi raisi, O‘zbekiston Qahramoni

Boshlanishi 1-betda

Shunga asosan, 8-may kuni Prezidentning “Muddatidan ilgari O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovini tayinlash to‘g‘risida”gi farmoni qabul qilindi.

Mazkur farmon bilan 2023-yil 9-iyul kuni muddatidan ilgari O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi o‘tkazilishi belgilandi.

Saylov kodeksida Prezident muddatidan ilgari O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovini tayinlagan taqdirda saylov Saylov kodeksiga to‘liq muvofiq holda ikki oy ichida o‘tkazilishi belgilab qo‘yilgan.

Bunda saylovga tayyorgarlik ko‘rish hamda uni o‘tkazishga doir tadbirlarni amalga oshirish muddatlari Markaziy saylov komissiyasi tomonidan belgilanadi.

Saylovga tayyorgarlik milliy qonunchilikda nazarda tutilgan tashkiliy ishlardan boshlanadi. Markaziy saylov komissiyasi tomonidan 2023-yil 10-maydan muddatidan ilgari Prezident saylovi bo‘yicha saylov kampaniyasiga start berildi. Shu tariqa mamlakatimizda Prezident sayloviga erkin va adolatli, ochiq va oshkora tayyorgarlik ishlari boshlandi.

Prezident saylovini o‘tkazish bilan bog‘liq barcha ishlar Markaziy saylov komissiyasi hamda okrug va uchastka saylov komissiyalari tomonidan Konstitutsiya, Saylov kodeksi, Markaziy saylov komissiyasi qarorlari, shuningdek, kalendar rejaga muvofiq amalga oshirilmoqda.

Saylovga tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazish bo‘yicha tadbirlarning tartibi, bosqichlari va muddatlari haqidagi xolis axborotlarni saylovchilar va siyosiy partiyalarga belgilangan tartibda ommaviy axborot vositalari orqali tezkorlik bilan yetkazish ta’minlanmoqda.

Xalqaro talablar va takomil

Saylovni tashkil etish va o‘tkazish — o‘ta mas’uliyatli jarayon, ko‘pning ko‘magi bilan bitadigan va muayyan vaqt talab qiladigan, serzahmat ish. Ovoz berishni tashkil etish jarayonida saylov okruglari va uchastkalarida yuz mingdan ziyod odam ish olib boradi.

Markaziy saylov komissiyasining joriy yil 13-maydagi qarori bilan Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri chegaralari doirasida Prezident saylovini o‘tkazuvchi o‘n to‘rtta saylov okrugi tuzildi.

Okrug saylov komissiyalari tarkibidagi jami 266 a’zodan saylovga tayyorgarlik ko‘rish va o‘tkazish borasida ish tajribasiga ega shaxslar 95 foizni tashkil etganini ko‘rish mumkin.

O‘zbekistonda saylov jarayonida gender tenglikni ta’minlash doimiy e’tibordagi muhim masalalardan. Okrug komissiyalari a’zolarining 110 nafari, ya’ni 41 foizi — ayollar. Shuningdek, okrug komissiyalari rahbarlik lavozimlarida ayollar 38 foizni tashkil etmoqda. Bitta okrug komissiyasiga esa ayol kishi raislik qilmoqda.

Okrug saylov komissiyalari tarkibiga turli kasb egalari — sohasining yetuk mutaxassislari, tajribali huquqshunoslar, iqtisodchilar, pedagoglar, jurnalistlar, shifokorlar, muhandislar jalb etilgan. A’zolarning deyarli barchasi oliy ma’lumotli mutaxassislar ekani komissiyalarning ish sifati va mas’uliyatini yanada oshirganini ta’kidlash joiz.

Saylovning qanday o‘tishi ko‘p jihatlarga, ayniqsa, uchastka saylov komissiyasi faoliyatiga bevosita bog‘liq. Ta’bir joiz bo‘lsa, uchastka saylov komissiyasi — saylov jarayonidagi eng muhim bo‘g‘in. Negaki, saylovchilar, qolaversa, kuzatuvchilar va ommaviy axborot vositalari vakillari — hamma aynan saylov uchastkasining faoliyati qanday yo‘lga qo‘yilganiga qarab siyosiy tadbirga baho beradi. Uchastkada saylovchilar ovoz beradi, saylov byulletenlari sanab chiqiladi. Saylovga oid qonunlar samarasi shu yerda yuzaga chiqadi, mavjud muammolar shu yerda aks etadi.

Shu bois, Prezident sayloviga tayyorgarlik jarayonida saylov komissiyalari tizimining eng quyi bo‘g‘inida faoliyat yuritadigan mutaxassislar milliy saylov qonunchiligi va xalqaro saylov standartlaridan yaxshi xabardor bo‘lishiga alohida e’tibor qaratildi.

Biz, ya’ni Markaziy saylov komissiyasi a’zolari barcha saylov okruglari va ularning tarkibidagi ko‘plab saylov uchastkalarida bo‘lib, saylovga tayyorgarlik ko‘rish borasida amalga oshirilgan ishlar bilan shaxsan tanishib, zarur maslahat va yordamlar berish jarayonida bunga yana bir bor ishonch hosil qildik.

Bundan tashqari, MSK majlislarida barcha okrug saylov komissiyalari raislarining amalga oshirilgan ishlar bo‘yicha batafsil axborotlari tinglandi va muhokama qilindi. E’tibordan chetda qolgan masalalar, yo‘l qo‘yilgan kamchiliklar darhol bartaraf etib borildi.

Ana shunday tizimli ishlar samarasida saylov uchastkalarida saylovchilar zarur axborotlarni olishi, erkin ovoz berishi uchun saylov qonunchiligida qat’iy belgilab qo‘yilgan barcha sharoitlar yaratildi.

Prezident saylovini o‘tkazish bo‘yicha tuzilgan uchastka saylov komissiyalari tarkibida faoliyat yuritayotgan a’zolarning sifat ko‘rsatkichlari tahlil qilinsa, milliy saylov tizimida izchillik bilan amalga oshirilayotgan keng qamrovli demokratik o‘zgarishlar berayotgan yuksak samaralarni ko‘rish mumkin.

Bu, avvalo, jami 108 ming 399 a’zoni birlashtirgan uchastka saylov komissiyalari safida ayollarning avvalgi saylovlardagidan sezilarli darajada ko‘pligida ko‘rinadi. Agar 2019-yilda o‘tgan parlament saylovida uchastka saylov komissiyalari tarkibida 54,4 mingga yaqin ayol faoliyat yuritgan bo‘lsa, joriy yildagi Prezident saylovida ular qariyb 2,5 mingta ko‘p.

Mazkur komissiyalar raislarining 3827 nafari, rais o‘rinbosarlarining 4199 nafari, kotiblarining esa 5745 nafari xotin-qizlardir. Uchastka saylov komissiyalari tarkibida nogironligi bo‘lgan 1856 fuqaro ish olib bormoqda. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bo‘yicha mutaxassislar esa a’zolarning 19 foizini tashkil etadi.

Ushbu ko‘rsatkichlar saylov o‘tkazish bo‘yicha okrug va uchastka saylov komissiyalari tarkibiga qo‘yiladigan yuksak xalqaro talablarga to‘la mosdir.

“Bir saylovchi — bir ovoz”

Bunday yuksak talablarga mos natijaga erishish o‘z-o‘zidan bo‘lmasligi ayon. Shu bois, Markaziy saylov komissiyasi saylovga tayyorgarlikni Muddatidan ilgari O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovini o‘tkazuvchi komissiyalar a’zolarining malakasini oshirishni tashkil etish konsepsiyasini tasdiqlashdan boshlagani bejiz emas.

Joriy yilning 19-may kuni qabul qilingan ushbu hujjatda belgilangan vazifalar ijrosini tizimli va sifatli ta’minlashda Markaziy saylov komissiyasi hamda Davlat boshqaruvi akademiyasi, Toshkent davlat yuridik universiteti, Huquqni muhofaza qilish akademiyasi, Jamoat xavfsizligi universiteti o‘rtasida yo‘lga qo‘yilgan hamkorlik muhim ahamiyat kasb etganini alohida ta’kidlash o‘rinli.

Barcha darajadagi saylov komissiyalari a’zolarining saylov qonunchiligidagi yangiliklardan xabardorligini, saylovga oid bilim va ko‘nikmalarini oshirishga qaratilgan mashg‘ulotlar uch bosqichda amalga oshirildi. Treninglarda zamonaviy pedagogik, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari imkoniyatlaridan keng foydalanilgani kutilgan samarani berdi.

Yuqoridan quyiga qarab kengayib, takomillashib boradigan va interfaol usullar ustuvorlik kasb etgan mashg‘ulotlar jarayonida mamlakatimiz bo‘yicha 112 mingdan ortiq saylov tashkilotchisi malaka oshirdi. Bilim va amaliy ko‘nikmasi test usulida sinovdan o‘tkazilganida tinglovchilarning 95 foizdan ortig‘i yuqori ball oldi.

Faqat ovoz berish yashirin

Saylov — demokratiya ko‘zgusi, degan gap bejiz ommalashmagan. Negaki, har qanday mamlakatda ochiqlik, oshkoralik, so‘z erkinligi, saylash va saylanish huquqiga oid umume’tirof etilgan ko‘plab demokratik tamoyillarning amalda nechog‘liq ta’minlangani aynan saylov jarayonida namoyon bo‘ladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti sayloviga tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazish jarayonlarining ochiqligi va oshkoraligini ta’minlash barcha darajadagi saylov komissiyalari faoliyatining asosiy prinsiplaridandir.

Prezident saylovini 800 ga yaqin xalqaro kuzatuvchi kuzatib boradi. Ular orasida Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkilotining Parlament assambleyasi hamda Demokratik institutlar va inson huquqlari bo‘yicha byurosi, Shanxay hamkorlik tashkiloti, Turkiy davlatlar tashkiloti, Turkiy davlatlar Parlament assambleyasi, Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi va MDH Parlamentlararo assambleyasi, Islom hamkorlik tashkiloti kabi nufuzli xalqaro tuzilmalar va dunyoning 47 davlatidan tashrif buyurgan kuzatuvchilar bor.

> **Prezident saylovini 800 ga yaqin xalqaro kuzatuvchi kuzatib boradi. Ular orasida Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkilotining Parlament assambleyasi hamda Demokratik institutlar va inson huquqlari bo‘yicha byurosi, Shanxay hamkorlik tashkiloti, Turkiy davlatlar tashkiloti, Turkiy davlatlar Parlament assambleyasi, Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi va MDH Parlamentlararo assambleyasi, Islom hamkorlik tashkiloti kabi nufuzli xalqaro tuzilmalar va dunyoning 47 davlatidan tashrif buyurgan kuzatuvchilar bor.**

Ayni paytda Prezidentlikka nomzod ko‘rsatgan siyosiy partiyalar va fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlaridan 54 mingga yaqin kuzatuvchi akkreditatsiyadan o‘tkazilgan.

Mahalliy va xorijiy ommaviy axborot vositalarining akkreditatsiyadan o‘tgan 1257 vakili saylov jarayonlarini yoritib bormoqda.

Saylov uchastkalarini ovoz berishga hozirlash jarayonida kuzatuvchilar va jurnalistlar uchun maxsus joy ajratilishiga alohida e’tibor qaratildi. Kuzatuvchilar ovoz berish jarayonini bemalol kuzatishlari, OAV vakillari bu jarayonni hech qanday to‘siqsiz yoritib borishlari uchun barcha zarur sharoitlar yaratilgan.

Markaziy saylov komissiyasining saylovga tayyorgarlik ko‘rish bilan bog‘liq barcha majlislari ijtimoiy tarmoqlar orqali surdo tarjimasi bilan jonli efirga uzatib borildi. Saylov kunini eslatuvchi SMS-xabarlar fuqarolarning mobil telefonlariga yuborilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasining xorijga ketayotgan fuqarolari uchun saylov kuni xorijda ovoz berish tartibini tushuntiruvchi flayerlar, saylovga chorlovchi plakatlar, saylovda ishtirok etuvchi fuqarolar uchun taklifnomalar tayyorlandi va belgilangan tartibda tarqatildi.

Raqamli texnologiyalarning O‘zbekiston milliy saylov tizimiga keng joriy etilayotgani ham Prezident sayloviga tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazish jarayonlarida ochiqlik va oshkoralikni ta’minlashda keng imkoniyatlar yaratmoqda.

2019-yilgi parlament saylovida ilk bor oltmishta saylov uchastkasiga jami 120 ta videokuzatuv uskunasi o‘rnatilgan edi.

Joriy yilgi saylovda qariyb uch barobar ko‘p — barcha tuman va shaharlarda ikkitagacha saylov uchastkasi binosida videokuzatuv kameralari ishlab turadi. Bu ovoz berish jarayonlarini real vaqt rejimida — onlayn videotranslyatsiya qilish imkonini beradi.

Videokuzatuv kameralari o‘rnatilgan saylov uchastkalari binolarida saylovchilarning yashirin ovoz berish prinsiplariga to‘liq rioya qilinadi.

2023 9-IYUL

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI SAYLOVI

> **Ishonchimiz komilki, muddatidan ilgari O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovida xalqimiz o‘z xohish-irodasini yana bir bor emin-erkin namoyon etadi, istiqboldagi milliy taraqqiyotimizning yo‘nalishlarini belgilab olishdek muhim jarayonlarga munosib hissasini qo‘shadi.**
> **Ushbu tarixiy saylov yangi O‘zbekistonning suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat sifatida eng muhim xalqaro saylov prinsiplariga sadoqatining yana bir yorqin namoyishiga aylanadi.**

Markaziy saylov komissiyasi Matbuot markazidagi ekranda, “Saylov2023.uz” portalida hamda O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasining “O‘zbekiston-24” va boshqa telekanallarda ovoz berish jarayonini bevosita kuzatish imkoniyati yaratiladi.

Mazkur yo‘nalishdagi muhim yangiliklardan yana biri Prezident saylovini o‘tkazuvchi 14-Toshkent shahri okrug saylov komissiyasi hududida joylashgan ellikta saylov uchastkasida saylov kuni saylovchi-fuqarolarni biometrik identifikatsiya qilish tizimi joriy etilayotganidir.

Matbuot markazida esa O‘zbekiston hududida yashovchi aholi uchun bepul 12-00 qisqa raqamli va xorijda istiqomat qiluvchi fuqarolar uchun bepul 55-500-12-00 raqamli tezkor axborot berish markazi ishlab turibdi.

Fuqarolardan, saylov tashkilotchilari-yu jurnalistlardan tushayotgan barcha murojaatlarga Markaziy saylov komissiyasi a’zolari, kotibiyatimiz mas’ul xodimlari, saylov bo‘yicha yetakchi ekspertlar va huquqshunos olimlardan iborat guruh tomonidan o‘z vaqtida malakali javoblar qaytarilmoqda. Murojaatlarning birortasi e’tibordan chetda qolayotgani yo‘q. Saylov kampaniyasi boshlanganidan buyon fuqarolardan tushgan har bir murojaat Markaziy saylov komissiyasi yig‘ilishlarida peshma-pesh ko‘rib chiqildi.

Darhaqiqat, saylovda fuqarolarning faqat ovoz berishi yashirin kechadi. Qolgan barcha ishlarda ochiqlik va oshkoralik to‘la ta’minlanmoqda.

Bularning barchasi “Bir saylovchi — bir ovoz” xalqaro saylov tamoyiliga qat’iy amal qilish imkoniyatini yanada kengaytirish, vatandoshlarimiz konstitutsiyaviy huquqlaridan foydalanib, saylovda erkin ovoz berishi va Prezident saylovini yuksak demokratik talablar asosida o‘tkazishga xizmat qiladi.

Ko‘tarinki ruh

Markaziy saylov komissiyasi tomonidan mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan siyosiy partiyalar murojaatlari ko‘rib chiqilib, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovida ishtirok etishiga ijozat berildi. Siyosiy partiyalarning vakolatli vakillari ro‘yxatga olindi va ular MSKning saylovga doir barcha tadbirlarida bevosita ishtirok etib kelmoqda.

Markaziy saylov komissiyasi tomonidan Xalq demokratik partiyasidan Ulug‘bek Ilyosovich Inoyatov, Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati — O‘zbekiston Liberal-demokratik partiyasidan Shavkat Miromonovich Mirziyoyev, O‘zbekiston “Adolat” sotsial-demokratik partiyasidan Robaxon Anvarovna Mahmudova, O‘zbekiston Ekologik partiyasidan Abdushukur Xudoyqulovich Hamzayev O‘zbekiston Respublikasi Prezidentligiga nomzod etib ro‘yxatga olingan.

Saylovda ishtirok etayotgan O‘zbekiston “Milliy tiklanish” demokratik partiyasi Prezident saylovida Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati — O‘zbekiston Liberal-demokratik partiyasidan ko‘rsatilgan nomzodni qo‘llab-quvvatlashga qaror qilgan.

Markaziy saylov komissiyasi tomonidan siyosiy partiyalar va Prezidentlikka nomzodlarning bir oy davom etgan saylovoldi tashviqoti, jumladan, saylovchilar bilan uchrashuvlari diqqat bilan kuzatib borildi. Partiyalar vakillari va Prezidentlikka nomzodlar ko‘tarinki ruhda o‘tgan tadbirlarda, asosan, saylovchilarga o‘z Saylovoldi dasturida nazarda tutilgan maqsadlardan kelib chiqib gapirdi, bahs-munozara yuritdi. Jamoatchilik ham ularning saylovoldi tashviqotini qiziqish bilan kuzatib borar ekan, ko‘plab yangi g‘oya va tashabbuslar, fikr va loyihalardan voqif bo‘ldi, deb o‘ylayman.

Barcha siyosiy partiyalar va nomzodlarga saylovoldi tashviqoti yuritishda ommaviy axborot vositalaridan foydalanishda hajmiga ko‘ra bir xil efir vaqtini va nashr maydonini bepul berish yo‘li bilan teng sharoit va imkoniyat ta’minlandi. Saylov qonunchiligi bilan o‘rnatilgan tartib va talablarning birorta siyosiy partiya yoki nomzod tomonidan buzilish hollari kuzatilmadi.

Saylovchilarni Prezident saylovi kuni, unda ishtirok etayotgan siyosiy partiyalar va Prezidentlikka nomzodlar haqida xabardor qilishga qaratilgan hamda saylovda faol ishtirok etishga chaqiruvchi turli o‘lchamlardagi 691 mingdan ortiq nusxadagi plakatlar o‘zbek, rus, qoraqalpoq, tojik, qozoq, turkman, qirg‘iz tillarida chop etilib, aholi gavjum joylarga joylashtirildi.

389 mingga yaqin tashqi reklama vositasida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentligiga nomzodlarga ovoz berishga chaqiruvchi saylovoldi tashviqoti bannerlari o‘rnatildi.

Bularning barchasi siyosiy partiyalar va ularning nomzodlari o‘rtasidagi o‘zaro raqobat va kurashni qizitdi. Buni har qadamda — saylovchilar bilan teledebat-u uchrashuvlarda, ommaviy axborot vositalaridagi chiqishlarda, ijtimoiy tarmoqlarda, siyosiy partiyalarning nashrlari va veb-saytlarida, shuningdek, internet nashrlarda ko‘rish mumkin. Bunday tadbirlar millionlab saylovchilarni qamrab oldi.

Odamlardagi bu qiziqish, faollikning sababi, avvalo, mamlakatimizda kechayotgan demokratik o‘zgarishlarda, muqarrarlik kasb etib borayotgan erkinlik, ochiqlik va oshkoralikdadir. Xalqimizning Vatanimiz kelajagiga yuksak umid va qat’iy ishonchida, el-yurt taqdiriga daxldorlik tuyg‘usi yuksalib borayotganidadir.

Bular O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovining ko‘ppartiyaviylik va muqobillik, oshkoralik va shaffoflik tamoyillari asosida, xalqaro umume’tirof etilgan demokratik standartlarga mos o‘tayotganiga yorqin misollardir.

Mehr-e’tibor

Markaziy saylov komissiyasi saylovga tayyorgarlik jarayonida nogironligi bo‘lgan fuqarolarning alohida ehtiyojlariga hamisha jiddiy e’tibor qaratib keladi.

Bu muddatidan ilgari O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti sayloviga tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazish jarayonida ham amaliy ifodasini topmoqda.

Mahalliy hokimiyat organlari bilan birgalikda Prezident saylovini tashkil qilish va o‘tkazishda nogironligi bo‘lgan fuqarolarning o‘z saylov huquqlaridan teng, to‘sqinliksiz foydalanishini ta’minlash maqsadida saylov uchastkalari binolarini va ovoz berish xonalarini tanlash hamda jihozlashda milliy saylov qonunchiligida belgilangan barcha shart-sharoitlarni yaratishga alohida e’tibor qaratildi.

Nogironligi bo‘lgan fuqarolarning saylov huquqlarini ta’minlashda qo‘shimcha shart-sharoit va imkoniyatlar yaratishga doir masala MSK majlisida muhokama qilinganida, O‘zbekiston Nogironlar jamiyati, Ko‘zi ojizlar jamiyati, Karlar jamiyati va Nogironlar assotsiatsiyasidan vakillar ishtirok etdi. Dolzarb masalalar yuzasidan fikrlarini bildirib, takliflarini aytdi.

Saylov byulleteni brayl alifbosida ko‘p ming nusxada chop etildi. Ko‘zi ojiz va zaif ko‘ruvchi fuqarolar saylov byulletenida o‘z xohish-irodasini mustaqil ifoda eta olishi uchun har bir saylov uchastkasi trafaret bilan ta’minlandi.

Saylov uchastkalarida nogironligi bo‘lgan va jismoniy imkoniyati cheklangan shaxslar uchun maxsus jihozlangan yashirin ovoz berish kabinalari joylashtirildi. Ko‘zi ojiz va zaif ko‘ruvchi saylovchilar uchun optik lupalar hamda yoritkichlar mavjud bo‘lishi ta’minlandi.

Markaziy saylov komissiyasi majlislarini ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalarimiz va telekanallar orqali surdo tarjimada bevosita kuzatib borish imkoniyati yaratildi.

Saylov — mamlakatning, millatning imiji, obro‘si. Har bir fuqaroning buguni va kelajagiga bevosita ta’sirini o‘tkazadigan ulkan siyosiy voqea.

Bugun dunyo ahli mustaqil O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan ulkan o‘zgarishlarni katta umid va xayrixohlik bilan kuzatib turibdi.

Ishonchimiz komilki, muddatidan ilgari O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovida xalqimiz o‘z xohish-irodasini yana bir bor emin-erkin namoyon etadi, istiqboldagi milliy taraqqiyotimizning yo‘nalishlarini belgilab olishdek muhim jarayonlarga munosib hissasini qo‘shadi.

Ushbu tarixiy saylov yangi O‘zbekistonning suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat sifatida eng muhim xalqaro saylov prinsiplariga sadoqatining yana bir yorqin namoyishiga aylanadi.

Fursatdan foydalanib, barcha vatandoshlarimizga murojaat qilib aytmoqchimanki, saylov o‘zining, farzandlarining porloq kelajagini o‘ylagan millat, xalq hamda Vatanini sevgan har bir inson uchun ulkan imkoniyatdir.

Kelayotgan yakshanba, 9-iyul kuni har birimiz ana shunday imkoniyatdan — konstitutsiyaviy huquqimizdan foydalanib, o‘zimiz erkin tanlagan munosib nomzodga ovoz bersak, yurtimiz ravnaqi, xalqimiz farovonligini ta’minlashdek ezgu ishlarga shaxsiy hissamizni qo‘shgan bo‘lamiz.

HUDUDLARNING BARQAROR RIVOJLANISHI QULAY ATROF-MUHIT VA SOG‘LOM EKOLOGIYAGA BOG‘LIQ

O‘zbekiston Ekologik partiyasidan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentligiga nomzod Abdushukur Hamzayevning Saylovoldi dasturida mamlakatimiz har bir hududi sharoitidan kelib chiqib, uning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish maqsadlarini amalga oshirish, “yashil” iqtisodiyotga o‘tish, ekologik xavfsizlikni ta’minlash, umuman, davlat va jamiyat boshqaruvi sohasida dolzarb vazifalar belgilangan. Nomzodning mamlakatimiz hududlarida o‘tkazayotgan saylovchilar bilan uchrashuvlarida xalqimiz Saylovoldi dasturi bilan atroflicha tanishtirilmoqda. Taklif etilayotgan dasturiy maqsadlar aynan hudud miqyosida qanday o‘zgarishlarni nazarda tutayotgani, odamlar diqqat markazida turgan qanday muhim masalalar yechimiga xizmat qilishi xususida so‘z yuritilmoqda.

AYDAR-ARNASOY KO‘LLAR EKOTIZIMI MUHOFAZASI

O‘zbekiston Ekologik partiyasidan Prezidentlikka nomzod Abdushukur Hamzayevning **Jizzax viloyati** saylovchilari bilan uchrashuvi Mirzacho‘l tumanida bo‘lib o‘tdi. Uchrashuvda nomzod yildan-yilga kamayib borayotgan tabiiy resurslar, chiqindilar muammosi va Jizzax viloyatida bu borada qilinishi kerak bo‘lgan vazifalarga to‘xtalib o‘tdi.

— Yurtimizning har bir hududida yashillikni saqlash nihoyatda muhim. Chunki iqlim o‘zgarishi oqibatida yozning issiq kelishi, anomal iqlim o‘zgarishlari insonlar sog‘lig‘iga, qishloq xo‘jaligi hosildorligiga, bir so‘z bilan aytganda, butun yer yuzidagi hayotiy jarayonlarga salbiy ta’sir ko‘rsatadi, — dedi **Prezidentlikka nomzod Abdushukur Hamzayev**.

Nomzod Jizzax viloyatining ham tabiatiga bevosita aloqador bo‘lgan ekologik nomaqbul hududlarda ekologik holatni tubdan yaxshilash bo‘yicha sanitar-epidemiologik monitoring tizimi rivojlantirilishi masalasiga alohida to‘xtaldi.

Jumladan, nomzod Jizzax viloyatining noyob javohirlaridan biri bo‘lgan Aydar-Arnasoy ko‘llar tizimining suv sathi 2 metrgacha pasayib, suv hajmi 36,8 milliard metr kubga tushganligini tilga oldi. Buning oqibatida ko‘lning qirg‘oq bo‘ylari 15-50 metrgacha chekinib, tuz qatlami hosil bo‘lgan. Ekotizimdagi bu o‘zgarishlar noyob qushlar turlarining yo‘qolib ketishiga sabab bo‘lishi mumkin.

Saylovoldi dasturida xalqaro ahamiyatga ega bo‘lgan suvli-botqoq hududlar *(Ramsar konvensiyasi)* ro‘yxatiga kiritilgan “Aydar-Arnasoy ko‘llar tizimi”, “Dengizko‘l”, “Quyimazor”, “To‘dako‘l”, “Sudochye-Akpetke” suv omborlari ekotizimlarini muhofaza qilish kuchaytirilishi alohida nazarda tutilgan.

— Nomzodning Saylovoldi dasturida kamyob va yo‘qolib ketish xavfi ostida turgan hayvonlarni ovlash va o‘simlik turlarini tabiatdan ajratib olishga 10 yillik moratoriy e’lon qilish, geoaxborot texnologiyalari asosida muhofaza etiladigan tabiiy hududlarning o‘simlik va hayvonot dunyosi obyektlarini hisobga olish va monitoringini yuritish taklif etilayotgani viloyatimizning boy flora va faunasini asrab-avaylashga xizmat qiladi, — deydi **partiya faoli Sanobar Suyarova.** — Men nomzod tomonidan ilgari surilayotgan dasturni qo‘llab-quvvatlayman va barchani oldimizda turgan siyosiy jarayonlarda faol bo‘lishga chaqiraman.

YASHIL HUDUDLAR SUV VA HAVODEK ZARUR

Abdushukur Hamzayevning **Sirdaryo viloyati** saylovchilari bilan uchrashuvida hududdagi dolzarb ekologik masalalar, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning kelgusi rejalari haqida atroflicha so‘z yuritildi.

Saylovoldi dasturidagi tarmoqlar va hududlarning “Yashil iqtisodiyotga o‘tish indeksi”ni ishlab chiqish, yuk tashishni yirik mashinalardan temir yo‘l transporti va boshqa ekologik toza transportlarga o‘zgartirishga qaratilgan choralar sirdaryolik saylovchilarda katta qiziqish uyg‘otdi.

Bunday strategik maqsadlar dunyoning rivojlangan mamlakatlarida allaqachon kun tartibiga chiqqan. Xususan, Yaponiyada qayta tiklanuvchi energiya manbalari hisobiga 2050-yilga kelib, avtotransportlardan atmosferaga tashlanmalarni nol foizga tushirish rejalashtirilgan. Buyuk Britaniya esa 2030-yilga borib, dizel va benzinli avtomobillar sotilishini butunlay taqiqlamoqchi. AQSHda 2030-yilga kelib, barcha yangi yengil avtomobillar va yuk mashinalarining 50 foizini nol chiqindili transportlarga almashtirish rejalashtirilgan.

Britaniyalik olimlar tadqiqotlariga ko‘ra, yashil hududlar ekologiyani barqarorlashtirish bilan birga jinoyatchilikning kamayishiga ham olib keladi.

— Shu sababli ham biz jamoatchilikning bugungi talabidan kelib chiqqan holda, shaharlar Bosh rejasini tuzishda ularda **yashil maydonlar kamida 30 foiz**ni tashkil etishi, shuningdek, yangi turar joy binolarining qurilishida “Yashil hududlar”ni aholining soniga mutanosib ravishda qurish zururligini taklif etyapmiz, — dedi **Abdushukur Hamzayev**. — Misol uchun, Sirdaryo viloyatining keskin kontinental iqlimida aholi shunday bahavo yashil hududlarga muhtoj.

Jahonda ekologiya sohasidagi qonun hujjatlari tizimi va ularni kodifikatsiyalash bo‘yicha amalga oshirilgan tadqiqotlar natijasida “Yashil hududlar”ni tashkil etish hamda qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanishni kengaytirish orqali global iqlim o‘zgarishining salbiy ta’sirini yumshatish bo‘yicha ta’sirchan huquqiy mexanizmlar taklif etilgan (Yale Centre for Environmental Law and Policy (AQSH), Stockholm Environmental Law and Policy Centre (Shvetsiya). Yuqoridagilardan kelib chiqib, mamlakatimizda ham Ekologik qonunchilikni kodifikatsiya qilish orqali Ekologiya, Suv, O‘rmon kodekslarini qabul qilish, “Aholining ekologik madaniyatini yuksaltirish to‘g‘risida”gi dasturni ishlab chiqish va amalga oshirish, ekologik sug‘urtalash tizimini rivojlantirish kabi takliflar ham alohida e’tirof etib o‘tildi.

— Nomzodning Saylovoldi dasturida iqtisodiyotning ko‘p resurs talab qiladigan — energetika, qurilish, qishloq xo‘jaligi, transport-kommunikatsiya tizimi va kommunal sohalarida energiya, resurs tejovchi va boshqa innovatsion, ekologik hamda raqamli texnologiyalarni keng joriy etishni qo‘llab-quvvatlash taklifi o‘rtaga tashlangani ayni muddao bo‘ldi, — deydi **xalq deputatlari Sirdaryo viloyat Kengashi deputati Akmal Ikromov.** — Negaki, aynan shu sohalarda tabiiy resurslardan nooqilona foydalanish oqibatida turli ekologik xavf-xatarlarning yuzaga kelish ehtimoli yuqori.

Agar yuqoridagi takliflar asosida ishlar tizimli ravishda olib boriladigan bo‘lsa, kelgusida duch kelishimiz mumkin bo‘lgan ko‘plab muammolarning oldi olinadi, deb o‘ylayman. Shularni hisobga olib, barchani Abdushukur Hamzayevning nomzodini qo‘llab-quvvatlashga chorlab qolaman.

MUSAFFO TABIAT BILAN DUNYOGA TANILISH KERAK

Prezidentlikka nomzodning **Samarqand shahrida saylovchilar bilan uchrashuvi**da anomal iqlim o‘zgarishlari, atmosfera havosining ifloslanishi kabi tabiiy ofatlar, kutilmagan tabiat injiqliklari singari ekologik muammolar, ularning yechimi bo‘yicha takliflari tilga olindi.

— Samarqand viloyatida ichimlik suv muammosi va yashil hududlarning yetishmasligi, hududdagi bioxilma-xillikni asrash, cho‘llanish, yerlar degradatsiyasi kabi ekologik muammolar mavjud, — dedi uchrashuvda **nomzod Abdushukur Hamzayev.** — Viloyat hududiga qarashli milliy tabiat bog‘larini, mavjud daryo va ko‘llar atrofidagi nabotot va hayvonot olamini asrash dolzarb ahamiyatga ega. Misol uchun, Zarafshon daryosida suv sathi pasayishi, nazoratsiz ravishda quduqlar qazilishi oqibatida yer osti suvlari kamayib, tabiiy buloqlarning ham qurib qolayotgani tashvishlanarli holdir. Zarafshon daryosi va uning atrofidagi o‘zanlardan ko‘p miqdorda shag‘al va tosh qazib olinayotgani hududdagi tabiiy to‘qayzorlarning mikroflorasi, o‘simlik va hayvonot dunyosiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda.

Saylovoldi dasturiga ko‘ra, bioxilma-xillikni va ekotizimlarni saqlash hamda ulardan oqilona foydalanish maqsadida muhofaza etiladigan tabiiy hududlar maydonlarini mamlakat hududining hozirgi 14 foizdan 20 foizga yetkazish choralari ko‘riladi. Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar yer uchastkalari va suvli akvatoriyasida ularning maqsadli vazifalariga zid bo‘lgan har qanday faoliyatga chek qo‘yiladi. Kamyob va keskin kamayish xavfi ostida turgan hayvonlarni ovlashga moratoriy e’lon qilinadi.

Nomzod shu o‘rinda boqiy Samarqand o‘zining betakror, so‘lim go‘shalari, go‘zal tabiati bilan ham sayyohlarni o‘ziga jalb etishi kerak, deya ta’kidlab o‘tdi.

— Aholini, ayniqsa, yoshlarni ona tabiatimizga hurmat ruhida tarbiyalash atrof-muhitni muhofaza qilishning muhim jihati, garovi desak, mubolag‘a bo‘lmaydi. Nomzod dasturida mazkur masalaning yechimi o‘z aksini topgan, — deydi **partiya faoli Mirzaahmad Mamedov.** — Ekologik muammolarni hal etishga doir strategiya va dasturlarni amalga oshirish uchun davlat organlari, tadbirkorlik subyektlari, mahallalar, nodavlat notijorat tashkilotlari, OAV hamda fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari vakillarini jalb etish tashabbusi e’tirofga loyiq.

Saylovchilar atrof-muhitni asrab-avaylash, o‘zlari duch kelayotgan turli ekologik muammolarni bartaraf etishda faol ishtirok etish istagini ham bildirdi.

HAVOGA ZAHARLI TUZLAR TARQALISHINING OLDINI OLISH MUHIM

Prezidentlikka nomzod Abdushukur Hamzayevning **Navoiy viloyati** saylovchilari bilan uchrashuvi Karmana tumanida bo‘lib o‘tdi.

Katta qismi cho‘ldan iborat bo‘lgan Navoiy viloyati yashil olamga muhtoj hududlardan biridir. Shuning uchun ham nomzodning Saylovoldi dasturida aynan **o‘rmonlarni muhofaza qilish**, ko‘paytirish, qayta tiklash, ularning mahsuldorligini oshirish orqali respublika hududining **o‘rmon bilan qoplanganlik darajasini 30 foizga yetkazish** masalasining kun tartibiga olib chiqilgani navoiylik saylovchilarda katta qiziqish uyg‘otdi.

Mamlakatimiz kam o‘rmonli davlatlar sirasiga kiradi. Hududimizning bor-yo‘g‘i 7,5 foizi o‘rmon bilan qoplangan. Masalan, bu ko‘rsatkich Yaponiyada 70 foiz, Janubiy Koreyada 64 foiz, Xitoyda va Rossiyada 40-45 foiz, Yevropa davlatlarida 35 foizdan yuqori. Qayerda yashillik, daraxt ko‘p bo‘lsa, shu joyda ekologiya barqaror bo‘ladi. Ayniqsa, bizning Markaziy Osiyo hududida bu juda muhim. Aynan cho‘l hududlarida o‘rmonlashtirishni jadallashtirish orqali cho‘llashishning oldi olinadi.

— Bugungi kunda yurtimiz hududida tez-tez uchrayotgan chang va qum bo‘ronlari oqibatlarini yumshatish, ularning o‘simlik va hayvonot dunyosiga keltiradigan xavfini kamaytirish, inson salomatligiga salbiy ta’sir etadigan zaharli tuzlar havoga tarqalishining oldini olish ishlarini tashkil etish muhim hisoblanadi, — dedi **Abdushukur Hamzayev**. — Navoiy, Buxoro, Xorazm viloyatlari va Qoraqalpog‘iston Respublikasi hududlarida qum ko‘chishining oldini olish maqsadida **yashil belbog‘lar barpo etish ishlarini jadallashtirish**ni Saylovoldi dasturimizda asosiy ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilab qo‘yganmiz.

Tahlillarimizga ko‘ra, keyingi yillarda dunyoda rivojlangan davlatlar, ayniqsa, Yevropa Ittifoqi davlatlari o‘zining ekologik siyosatini amalga oshirish uchun katta miqdorda moliyaviy qo‘llab-quvvatlashni amalga oshirmoqda. Xususan, Yevroittifoqda 2015-yilda yalpi ichki mahsulotning 3 foizi aynan ekologik siyosatni yuritishga sarf etilgan. Mintaqadagi ayrim mamlakatlarda esa bu ko‘rsatkich yana ham yuqori. Masalan, Shvetsiyada YAIMning salkam 4 foizi, Fransiyada esa 3,5 foizi yo‘naltirilgan.

Dunyoda inson faoliyati natijasida har yili atmosferaga 20 milliard tonna karbonat angidrid gazi chiqariladi va 300 million tonnadan ortiq plastik chiqindi hosil bo‘ladi. Yashil iqtisodiyot tamoyillarining eng asosiylaridan biri esa barqaror ishlab chiqarish va iste’molning davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlanishi, shuningdek, kam uglerodli, resurslarni tejovchi texnologiyalarni joriy qilishdan iborat.

O‘zbekistonda 2021-yilda atmosferaga tashlanmalar miqdori **2,2 million** tonnani tashkil qilgan bo‘lsa, shundan **58 foizi** transport vositalari, **42 foizi** sanoat va ishlab chiqarish korxonalari hissasiga to‘g‘ri keldi.

Metallurgiya, kimyo va mashinasozlik markazlari bo‘lgan Navoiy shahrida havoning ifloslanish darajasi o‘rtachadan yuqori. Nafaqat viloyatda, balki butun respublikada atrof-muhitga zarar keltiruvchi korxonalarni bosqichma-bosqich “Yashil texnologiyalar”ga yo‘naltirish zarur. Bunda birinchi bosqichda atrof-muhitga zarar yetkazuvchi ishlab chiqarishga investitsiyalarni kamaytirish vazifasi turadi. Yevropadagi ko‘plab banklar 2022-yildan boshlab gaz loyihalariga kredit berishni to‘xtatdi. Bu nafaqat sanoatni imtiyozli davlat kreditlaridan mahrum qiladi, balki xususiy investorlarni jalb qilishni ham kamaytiradi.

Shu sababli mamlakatimiz investitsiyaviy jozibadorligini oshirish maqsadida “Yashil viza” (“Green Visa”) dasturini joriy etish orqali yurtimizga tabiiy resurslardan samarali foydalanishga kapital jalb qilinadi.

Shuning uchun ham nomzodning yirik va sanoati rivojlangan shaharlarda atmosfera havosiga chiqarilayotgan uglerod, azot birikmalari, metan va boshqa zararli gazlar miqdorini **2 barobarga kamaytirish** orqali atmosfera havosining sifat ko‘rsatkichlarini belgilangan me’yorlar darajasiga keltirish va ularning aholiga salbiy ta’sirini kamaytirish haqidagi takliflarini Navoiy viloyati saylovchilari alohida e’tirof etdi.

EKOLOGIK XAVF-XATARLARGA QARSHI KURASHISHDA NAMUNA BO‘LADI

Surxondaryo viloyati Termiz shahrida bo‘lib o‘tgan uchrashuvda Prezidentlikka nomzod tomonidan ekologik muammolar, ularning yechimi, oldimizda turgan vazifalar batafsil aytib o‘tildi.

— Rivojlangan davlatlar, jumladan Yaponiya, Isroildagi “Yashillar partiyasi” tashabbuslariga ko‘ra, daryo, ko‘l va boshqa suv bo‘ylarida qurilishlarni taqiqlash ekologiyaga juda yaxshi ta’sir qilgan. Shundan kelib chiqib, mamlakatimizda ham yashil hududlar, tog‘ yon bag‘irlari, daryo va ko‘llar sohillaridagi har qanday qurilishlar ekologik ekspertiza va jamoatchilik nazoratidan so‘ng amalga oshirilishi ta’minlanadi, — dedi **Abdushukur Hamzayev.** — Bugun chiqindi poligonlarimizda 3,5 milliard tonnadan ziyod sanoat chiqindilari yig‘ilib qolgan. Hozirda sanoat chiqindilarining 6-7 foizi, maishiy chiqindilarning esa 17-18 foizi qayta ishlanadi, xolos. Yaponiya va Xitoyda bu ko‘rsatkich mos ravishda 40-60 va 90 foizni tashkil qiladi. Shulardan kelib chiqib, mamlakatimizda ham xavfli chiqindilar, tibbiyot va biologik hamda qurilish chiqindilarini boshqarish va qayta ishlashni tartibga soluvchi “Chiqindilar to‘g‘risida”gi qonun yangi tahrirda qabul qilinadi.

Xalqimizning sog‘lom turmush tarziga erishish uchun har birimiz faol harakat qilishimiz, barcha imkoniyatlarni ishga solishimiz zarurligi qayd etildi. Ayniqsa, o‘sib kelayotgan yosh avlod uchun musaffo havo, sof tabiat, sog‘lom turmush tarzini hayot shioriga aylantirishimiz shart. Shundan kelib chiqib, surxondaryolik saylovchilar bilan muloqotda Abdushukur Hamzayev muhim bir taklifni ilgari surdi: **2030-yildan boshlab 2009-yildan keyin tug‘ilganlarga yoshidan qat’iy nazar, sigaret sotishni taqiqlashimiz kerak!**

Surxondaryo viloyati mamlakatimizda markazlashgan ichimlik suv bilan ta’minlanish darajasi bo‘yicha past ko‘rsatkichga ega hududlardan hisoblanadi. Shuning uchun ham saylovchilar tomonidan nomzodning qishloq joylarda yashayotgan aholini toza ichimlik suv ta’minoti va sifati yaxshilanishi e’tibor markazida bo‘lishiga doir tashabbuslari ko‘tarinkilik bilan qarshi olindi.

Aholi yashash punktlarida badbo‘y hid chiqarayotgan, oqova suv tozalash inshootlari bo‘lmagan har qanday korxona faoliyati belgilangan talablarga javob beradigan texnologiyalar joriy etilmaguncha to‘xtatilish amaliyoti joriy etilishi ta’kidlab o‘tildi.

Surxon diyorida tez-tez yuz beradigan qum-chang bo‘ronlari viloyat ahlining og‘riqli nuqtalaridan biri hisoblanadi. Shuning uchun ham qum-chang bo‘ronlarini kamaytirish va to‘xtatishga qaratilgan tadbirlarni amalga oshirish, shamol yo‘nalishlari bo‘ylab, ilmiy asoslangan holda ihota daraxtzorlari barpo etish, shuningdek, suv bilan ta’minlanish muammolari viloyatliklar uchun ahamiyatsiz masala emasligi ta’kidlandi. Uchrashuvda so‘zga chiqqanlar ushbu jihatlarga alohida to‘xtalib, bu borada o‘z taklif va mulohazalarini bildirib o‘tdi.

AHOLINI MARKAZLASHGAN TOZA ICHIMLIK SUV BILAN TA’MINLASH — BOSH VAZIFA

Nomzodning **Buxoro viloyati** saylovchilari bilan uchrashuvida ekologik barqarorlikni ta’minlash hamda tabiiy resurslardan samarali va oqilona foydalanish borasidagi dasturiy maqsadlar yuzasidan atroflicha so‘z yuritildi.

Buxoroning keskin-kontinental iqlimi uning “**yashil qalqon”**lar va hududlarga muhtojligidan dalolat beradi. Shuning uchun ham saylovchilar nomzodning Saylovoldi dasturidagi ushbu yo‘nalishni alohida qo‘llab-quvvatlashlarini bildirdi.

Buxoro aholisining ichimlik suv bilan ta’minlanish darajasi 73 foizni tashkil etadi. Hududdagi aholi murojaatlarining muayyan qismi aynan toza ichimlik suv ta’minoti bilan bog‘liq ekani ham bejiz emas.

Shu bois, suv resurslaridan oqilona foydalanishga qaratilgan islohotlar olib boriladi. Ichimlik suv ta’minoti loyihalarida bozor mexanizmlarini joriy etishga kirishiladi, loyiha tashabbuskorining tashkiliy-huquqiy shaklidan qat’i nazar, suv hisoblagichlarini o‘rnatish choralari ko‘riladi.

Respublikada suv taqchilligining oldini olish bo‘yicha qo‘shimcha choralar ko‘rish lozim. Tahlillarga ko‘ra, 2030-yilga borib, suv taqchilligi hozirgidan 2,5 barobarga ortishi kutilmoqda. Shu sababli, qishloq xo‘jaligi ekinlarini sug‘orishda suv tejovchi texnologiyalarni (tomchilatib, yomg‘irlatib, diskret va boshqa) joriy etishda iqtisodiy omillarni yanada kengroq qo‘llash orqali ushbu sohani davlat tomonidan rag‘batlantirish tizimi yanada takomillashtiriladi.

— Nomzod tomonidan kam ta’minlangan qatlam va ekologik nomaqbul hududlar aholisi uchun ijtimoiy-tibbiy xizmat ko‘rsatishning huquqiy asoslari ishlab chiqilishi taklif etilayotgani ko‘pchilik kutgan tashabbus bo‘ldi, — deydi **Buxoro davlat universiteti biotexnologiya kafedrasi mudiri Farhod Jumayev.** — Shuningdek, ekologik omillarning inson sog‘lig‘iga salbiy ta’sirini bartaraf etish, sifatli tibbiy xizmat ko‘rsatishga yo‘naltirilgan tibbiy sug‘urta mexanizmlari joriy qilinishi ham soha uchun yangilik bo‘ladi. Barchamiz mamlakatimizda chang-to‘zon ko‘tarilishi holatlarini kuzatyapmiz. Bunday tabiiy ofatlarning oldini olish uchun nomzodning Saylovoldi dasturida viloyatning cho‘l bilan chegaradosh hududlarda “yashil qalqon”lar va ihotazorlar barpo etish bo‘yicha vazifalar belgilanganini olqishlayman va qo‘llab-quvvatlayman.

OROLBO‘YI YANA YASHNAYDI, YASHIL OLAM KIRIB BORADI

Qoraqalpog‘iston global ekologik muammoga uchragan hudud hisoblanadi. Shuning uchun ham mamlakat barqaror rivojlanishining uzoq yillik strategiyasida, albatta, bu masala ustuvor o‘rinlarda turishi, jamoatchilik e’tibor markazida bo‘lishi tabiiydir.

Orolbo‘yi mintaqasining ekologik tizimini muhofaza qilish hamda tiklash, mintaqani ijtimoiy va iqtisodiy jihatdan rivojlantirish yuzasidan davlat tomonidan choralar ko‘rilishi konstitutsiyaviy norma sifatida mustahkamlanishi muhim ahamiyat kasb etadi.

— Orolbo‘yi mintaqasida yashil zonalarni yaratmasdan ekologik muvozanatni tiklash mushkul. Shuning uchun biz barcha sa’y-harakatlarimizni Orol dengizining halokatli oqibatlarini yumshatishga qaratilgan innovatsion loyihalarni amalga oshirish orqali Orolbo‘yi mintaqasida ekologik va ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatni, aholining yashash sharoitlarini yaxshilashga qaratamiz, — dedi **Abdushukur Hamzayev**.

Nomzod taklif etayotgan dasturiy maqsadlarga ko‘ra, Orol dengizi fojiasi oqibatlarini boshidan kechirayotgan hududlar, ayniqsa, Qoraqalpog‘iston Respublikasida iqlim o‘zgarishi xavfi va tahdidlarini kamaytirishga qaratilgan loyihalar hayotga tatbiq qilinadi. Fermer va dehqon xo‘jaliklari, klasterlarga sug‘orish tarmoqlarini modernizatsiya qilish tavsiyalari ishlab chiqiladi. Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini kam suv talab qiladigan darajada issiqxonalar va tomchilatib sug‘orish asosida yetishtirish uchun texnologik ta’minot bo‘yicha yaqindan yordam beriladi. Qurg‘oqchilikka bardoshli ekinlar ekishni joriy etish va daromad manbaini oshirishda yordam ko‘rsatiladi.

— Bugun Orol fojiasi oqibatlarini bartaraf etish uchun dengiz o‘rnida yashil qoplamalar, ya’ni o‘rmonzorlar barpo etishga kirishilgan. Nomzod dasturida bu boradagi ishlarni jadallashtirish uchun aniq vazifalar taklif etilmoqda, — deydi **Yoshlar parlamenti a’zosi Malika Gulimbetova.** — Barpo etiladigan “yashil qoplamalar” Orolbo‘yi mintaqasi, aholi yashash hududlari, xalq xo‘jaligi obyektlari, qishloq xo‘jaligi ekinlari, bog‘ va tokzorlar hamda cho‘l hududlaridagi saksovulzor va yaylovlarga zaharli qum, tuz va chang yog‘ilishidan hamda tabiatning boshqa salbiy ta’sirlaridan himoya qiladi. Mintaqada ekotizim saqlanishi, biologik xilma-xillik ko‘payishi uchun qulay sharoit yaratadi va cho‘l yaylovlari mahsuldorligi oshadi. Shuning uchun men barchangizni Abdushukur Hamzayev nomzodini qo‘llab-quvvatlashga chaqiraman!

TUPROQ SHO‘RLANISHIGA QARSHI ILM BILAN KURASHISH KERAK

Prezidentlikka nomzod Abdushukur Hamzayevning **xorazm**lik saylovchilar bilan bo‘lib o‘tgan uchrashuvida qurg‘oqchilik, yerlarning sho‘rlanishi, tuproq degradatsiyasi, aholini ichimlik suvi bilan ta’minlash, bioxilma-xillikni saqlash, yashil hududlarni ko‘paytirish haqida atroflicha so‘z yuritildi. Saylovoldi dasturida mazkur yo‘nalishda aniq maqsadlar qo‘yilgani e’tirof etildi.

Viloyatda mavjud 257,7 ming sug‘oriladigan yerlarning 99,2 foizi sho‘rlangan yerlar toifasiga kirib, 105,6 ming gektari o‘rtacha va kuchli sho‘rlangan yerlardir. Qolgan qismi esa kam sho‘rlangan yerlar qatoriga kiradi.

Shuning uchun ham nomzodning Saylovoldi dasturida maqsad qilingan tuproq sho‘rlanishi va uning oldini olish borasidagi yechimlar xorazmlik saylovchilar tomonidan faol qo‘llab-quvvatlandi.

— Nomzod suv resurslari muhofazasi, xususan, aholi salomatligini saqlashda markazlashgan ichimlik suv ta’minotini yaxshilashga yo‘naltirilgan vazifalarni taklif etayotgani e’tiborimni tortdi, — deydi **ekologiya faoli Kim Antonina.** — Viloyatimizda aholining toza ichimlik suv bilan ta’minlanganlik darajasini oshirish zarur. Shu orqali odamlar salomatligini mustahkamlashga erishamiz, ko‘p ijtimoiy muammolar o‘z-o‘zidan barham topadi.

Dasturda belgilangani kabi, mamlakat aholisiga oqova suv xizmati ko‘rsatishni yanada rivojlantirish bo‘yicha loyihalar Xorazm viloyati uchun alohida ahamiyatga ega. Urganch, Xiva va Pitnak shahar oqova suv tozalash inshootlarini zamonaviy loyihalar asosida yangidan barpo qilish, shuningdek, viloyatning boshqa aholi punktlarida ham oqova suv xizmatini yo‘lga qo‘yishga imkon beradi.

Prezidentlikka nomzod Urganch, Xiva va boshqa yirik aholi yashash punktlari atrofida “yashil belbog‘lar” barpo etish, Xorazm iqlimiga mos gujum, tut, qandim, saksovul, jiyda, zarang kabi daraxt ko‘chatlarini ko‘proq ekish zarurligini qayd etib o‘tdi.

Umuman olganda, nomzodning hududlardagi uchrashuvlarida aholining qulay atrof-muhitga bo‘lgan huquqini ta’minlash va xalqimiz farovonligini yanada oshishiga xizmat qiluvchi Saylovoldi dasturidagi taklif hamda tashabbuslari faollar va atrof-muhit muhofazasiga befarq bo‘lmagan fuqarolar tomonidan keng qo‘llab-quvvatlanmoqda.

O‘zbekiston Ekologik partiyasi Markaziy Kengashi matbuot xizmati

O‘ZBEKISTON EKOLOGIK PARTIYASIDAN PREZIDENTLIKKA NOMZOD ABDUSHUKUR HAMZAYEVGA OVOZ BERING!

YANGI O‘ZBEKISTON
www.yuz.uz yuz.uznews yuz_official yuz.uz_news

TAHLIL VA TAQQOS

DUNYODA TENGI YO‘Q TEXNOLOGIYALAR

Abdurauf QORJOVOV,
iqtisodiy sharhlovchi

Boshlanishi 1-betda

Oltin aksariyat hollarda usti boshqa metallar oksidi yoki sulfidning yupqa qatlami bilan qoplangan bo‘ladi. Mamlakatimizning Qizilqum kengliklaridagi oltinga boy ma’danlar ham xuddi shunday jihati bilan tavsiflanadi.

Mutaxassislarning fikricha, oltin saqlovchi ma’danlar ikki asosiy turga bo‘linadi — birlamchi (sulfid) va ikkilamchi (oksidlangan) ma’danlar. Oksidlangan ma’danlar oson qayta ishlanadi va ulardan oltin an’anaviy usullar yordamida ajratib olinadi.

Sulfidli konsentratlarni qayta ishlash uchun jahon amaliyotida asosan avtoklavda qayta ishlash, oksidlovchi kuydirish va bakterial oksidlanish texnologiyalari qo‘llaniladi. Avtoklavda qayta ishlash usulida yuqori harorat va bosim ishlatiladi. Oksidlovchi kuydirishda ham yuqori haroratdan foydalaniladi.

Bakterial oksidlanish jarayoni qayta ishlash uchun qiyin bo‘lgan ma’danlar va konsentratlardan mahsulot olishning yangi muqobil yo‘nalishi bo‘lib, uning vazifasi sulfidli minerallarni oksidlash, ya’ni uni keyinchalik klassik usullar bilan sorbsion ishlov berish maqsadida mikroorganizmlar ta’sirida oltinni ochishni o‘z ichiga oladi.

Navoiy kon-metallurgiya kombinatining 3-gidrometallurgiya zavodida dastlab an’anaviy oksidlovchi kuydirish texnologiyasi ishlab chiqildi. Biroq iqtisodiy va ekologik jihatdan maqsadga muvofiq emasligi sababli bu usul maksimal iqtisodiy samaradorlik va ekologik xavfsizlikka ega zamonaviy yechimlarga asoslangan ilg‘or biotexnologiyaga o‘z o‘rnini bo‘shatib berdi. Natijada 2008-yilda “Kokpatas” va “Dovgiztov” konlaridagi sulfidli ma’danlarni qayta ishlash uchun bakterial oksidlanish texnologiyasi ishga tushirildi.

Biologik oksidlangan mahsulot tarkibidan 85 foizgacha oltin ajratib olinardi. Qolgan qismi chiqindiga chiqib ketardi. Yangi texnologiya joriy etilgach, ana shu chiqindi tarkibidagi 15 foiz oltinning aksariyat qismini ajratib olish imkoniyatiga ega bo‘lindi.

— Ma’lumki, zamonaviy tog‘-kon sanoatida ishlanishi murakkab bo‘lgan ma’dan tarkibidan metallarni ajratib olish bo‘yicha ilmiy izlanish olib borish, sohada yangi texnologiyalarni yaratish muhim vazifalardan biri sanaladi, — deydi 3-gidrometallurgiya zavodi texnologiya bo‘limi boshlig‘i o‘rinbosari, texnika fanlari doktori Ulug‘bek Ergashev. — Kombinatimiz jamoasining shu yo‘ldagi izlanishi, fan va texnika sohasida yangiliklar yaratish va ularni ishlab chiqarishga joriy etish bo‘yicha sa’y-harakatlari o‘z natijasini berayotgani mamlakatimizda inson intellektiga e’tiborning samarasi, desak, aslo mubolag‘a bo‘lmaydi.

Bu sohada “Texnologik va ishlanishi murakkab bo‘lgan oltin tarkibli ma’danlarni qayta ishlash va o‘zlashtirishning kompleks texnologiyalarini ishlab chiqish va joriy etish” mavzusidagi ishlanma ana shunday ilmiy izlanishlarimizdan biri hisoblanadi.

Murakkab tarkibli ma’dandan oltinni yuqori samaradorlikda ajratib olishga mo‘ljallangan mazkur ishlanma ustida 2009-yilda olim va mutaxassislar jalb etilgan holda ish boshlangan edi. Qariyb o‘n yil izchil ilmiy izlanish va tadqiqotlar olib borildi. Natijada dunyoda muqobili bo‘lmagan noyob texnologiyani yaratishga hamda bu ixtironi nazariy va amaliy jihatdan nafaqat respublikada, balki xalqaro miqyosda ham isbotlab berishga muvaffaq bo‘ldik.

Ilmiy izlanish va tadqiqotlar ko‘lamini tasavvur qilish uchun bir jihatga e’tibor qaratmoqchiman. 2009-2019-yillar davomida uch mingdan ortiq turli muvaffaqiyatli va muvaffaqiyatsiz tajribalar o‘tkazildi, pirovardida jahonda hali qo‘llanmagan texnologiya vujudga keldi. Bu Germaniya, Qozog‘iston va Rossiyada o‘tgan xalqaro konferensiyalarda munosib himoya qilinib, ilmiy anjumanlarning 1-darajali diplomlariga sazovor bo‘ldi. Ko‘p yillik mashaqqatli izlanishlar, aniq isbot va dalillarga asoslangan ixtiromiz xalqaro miqyosda ham tan olinib, O‘zbekiston va Germaniyada patentga ega bo‘ldi.

Umuman, ixtiromiz dunyo kon-metallurgiya sanoatida muhim yangilik sifatida o‘z e’tirofini topdi. Yangi texnologiyaning joriy etilishi tufayli 3-gidrometallurgiya zavodida chiqindidan yiliga qo‘shimcha ravishda 1,5 tonna oltin olinmoqda.

Dastavval, soha mutaxassislari, xorijlik olimlar ishimizning samarali bo‘lishiga ishonchsizlik bilan qaragani ham bor gap. Bu tabiiy hol edi. Chunki ishlanmamiz



yangi nazariyaga asoslangan va buning natijasi hozirgi zamon texnologiyalaridan ancha oldinni ko‘zlagan edi.

Amaliyotga muvaffaqiyatli tatbiq etilgan ixtiro ortidan kutilgan samaradorlikka erishdik. Bu yutug‘imiz xalqaro miqyosda ham e’tirof qilinib, BMT Intellektual mulk tashkilotining oltin medaliga loyiq topildi.

Prezidentning o‘tgan yil dekabr oyidagi farmoniga muvofiq, bir guruh olim va mutaxassislarimiz tomonidan yaratilgan “Texnologik va ishlanishi murakkab bo‘lgan oltin tarkibli ma’danlarni qayta ishlash va o‘zlashtirishning kompleks texnologiyalarini ishlab chiqish va joriy etish” bo‘yicha ilmiy-amaliy ishlanmamiz birinchi darajali Davlat mukofoti bilan taqdirlangani butun jamoamizga katta mamnuniyat baxsh etdi. Bunday yuksak e’tirofdan O‘zbekistonda inson qadri ulug‘ degan tamoyilning amaliy ifodasiga, hech bir ezgu harakat beiz qolmasligiga yana bir karra amin bo‘ldik.

Bugungi shiddatkor zamonda yuqori texnologiyalarga asoslangan ishlab chiqarish rivojlanib, raqobat kuchaymoqda. Buning natijasida har bir sohada ilmga asoslangan yangiliklar yaratish hayotiy zaruratga aylanmoqda. Binobarin, kon-metallurgiya sanoati ham bundan mustasno emas.

Keyingi olti yilda kon-metallurgiya sanoatida tub o‘zgarishlar ro‘y berdi. Ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik jihatdan qayta jihozlash hamda yangi ishlab chiqarish quvvatlarini foydalanishga topshirish bo‘yicha yirik investitsiya loyihalarining joriy etilishi bunga zamin yaratdi. Muhim dastur va puxta o‘ylangan investitsion loyihalarning hayotga izchil tatbiq etilayotgani kombinat ravnaqida katta ahamiyat kasb etmoqda. Bu borada ishlab chiqarish jarayoniga ilg‘or texnologiyalar joriy etilayotgani ham muvaffaqiyatlarda muhim o‘rin tutyapti.

— Bundan uch yil muqaddam kombinatimiz tajribali muhandis va mutaxassislari tomonidan texnogen chiqindilarni qayta ishlash bo‘yicha hali dunyo amaliyotida bo‘lmagan yana bir noyob investitsion loyiha amalga oshirildi, — deydi 7-gidrometallurgiya zavodi direktori Farhod Cho‘liyev. — Olimlar bilan hamkorlikda mazkur muammolar yechimi bo‘yicha yangi texnologiyalar yaratishga erishildi va ular asosida ishlaydigan 7-gidrometallurgiya zavodi ishga tushirildi. Korxonamiz yiliga 15 million tonna texnogen chiqindilarni qayta ishlash quvvatiga ega va yuksak texnologiyalar asosida to‘liq raqamlashtirilgan. E’tiborlisi, qayta ishlanadigan texnogen chiqindilar 2040-yilgacha yetadi.

Yana bir jihati, zavod qurilishida yengil konstruksiyalar va energiyatejamkor texnologiyalardan foydalanildi. Ilgari chetdan olib kelinadigan ko‘plab asbob-uskuna va butlovchi materiallar mahalliylashtirildi. Xususan, ular Navoiy mashinasozlik zavodi va kon boshqarmalaridagi sexlarda tayyorlandi. Kimyoviy ishlov berish jarayonida ham mahalliy mahsulotlardan foydalanilmoqda. Bular tannarxni yanada arzonlashtirishda muhim omil bo‘lyapti. Zavodning barcha texnologik jarayonlarini asosan Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universitetini tugatgan yosh mutaxassislar va mahalliy aholi vakillari boshqarmoqda.

Navoiy kon-metallurgiya kombinatida Investitsiya dasturi doirasida yirik va strategik ahamiyatga ega loyihalar bosqichma-bosqich amalga oshirilyapti. Ana shunday loyihalardan biri bo‘lgan Nurota tumani hududidagi “Pistali” konida oltin tarkibli ma’danlarni qazib olish va qayta ishlash majmuasi — 6-gidrometallurgiya zavodi qurilishi yakunlandi. Joriy yilning iyun oyi boshida mazkur zavodning birinchi tegirmon bloki ishga tushirildi. Tez orada ikkinchi navbati ham foydalanishga topshiriladi. Zavod to‘liq quvvatda ish boshlashi bilan yiliga 4 million tonna ma’dan qayta ishlanib, 4,4 tonna oltin ishlab chiqariladi va mamlakatimiz iqtisodiyotini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Yana bir ahamiyatli tomoni, zavodning texnologik uskunalari va jihozlari Navoiy mashinasozlik zavodida tayyorlangan. Ular kombinat quruvchi-mutaxassislari tomonidan o‘rnatilyapti.

Xalqaro darajadagi yuqori sifat kafolati

Tabiatda oltinning notekis va kam miqdorda tarqalishi bois, konlarni qidirish hamda o‘zlashtirish uchun tog‘ jinslarini tezkor tahlil qilish muhim sanaladi. Oltin konlaridan olingan namunalarni tahlil qilishda aniqlik darajasi o‘ta yuqori bo‘lishi shart. “Navoiy kon-metallurgiya kombinati” AJning Markaziy gamma-faollashtirilgan tahlil laboratoriyasi noyob bo‘linmalar sirasiga kiradi.

Laboratoriyada tezlatkichlar yordamida elektronlar oqimi quvur orqali eng qisqa vaqtda yorug‘lik tezligiga yaqin tezlik olib, volfram nishonga borib uriladi va singish xususiyati yuqori bo‘lgan gamma nurlarini chiqarib, oltin atom yadrolarini faollashtiradi. Soniyalarda yuz beradigan bu jarayon natijasida ma’danlar tarkibi va ulardagi zarur element miqdori haqida olinadigan ma’lumotlar konlarda qimmatbaho metallarni aniqlash, qazish, metallurgik ishlov berish imkonini oshirmoqda. Jumladan, ma’dandagi oltin tarkibini 17 soniyada aniqlash mumkin.

— Keyingi yillarda laboratoriyamizda zamonaviy jihozlar o‘rnatildi, tadqiqotlarning yangi uslublari joriy etildi, — deydi Markaziy gamma-faollashtirilgan tahlil laboratoriyasi rahbari Alisher Qo‘ldoshov. — Jumladan, tezkor ma’lumotni olish bo‘yicha tahlil uchun qo‘llaniladigan konteynerlar, ya’ni namunalar solingan idishlar identifikatsiyalashtirildi. Bu kabi raqamli texnologiyalar orqali geologik namunalar bo‘yicha yig‘ilgan axborotlar soniyalarda geologlarga yetkazilmoqda.

2016-yilda o‘lchash-boshqarish majmuasi modernizatsiya qilingan bo‘lsa, keyingi yili UELR-8-8A tipidagi yangi elektronlarni chiziqli tezlatkich ham tubdan yangilanib, sanoat sinovidan o‘tkazildi. 2020-yilda esa UELR-8-10A tipidagi yangi elektronlarni chiziqli tezlatkichda montaj va sozlash ishlari bajarilib, foydalanishga topshirildi. Tezlatkichlarni sovitish tizimining yangilangani tufayli texnologik bo‘sh turib qolishlarga barham berildi.

Shu tariqa laboratoriyada geologik namunalarning tarkibidagi oltinni tezkor tahlil qilish jarayoni ham yildan-yilga takomillashib boryapti. Laboratoriya ishga tushgan vaqtda kuniga 50 ta namuna tahlil qilingan bo‘lsa, hozirgi kunda bu raqam 3500 dan ko‘proqni tashkil etadi. Yillik ko‘rsatkichi 1 million 500 mingtagacha yetadi. Dunyodagi hech bir fizik laboratoriya bu hajmda tahlil o‘tkazish imkoniyatiga ega emas. Uning noyoblik jihatlaridan biri ham ana shunda, aslida.

Laboratoriya nafaqat kombinat bo‘linmalari, ya’ni Navoiy, Zarafshon, Uchquduq, Zarmitan, Marjonbuloq kabi geografik hududlardagi konlardan olingan, balki yurtimizning boshqa geologik-qidiruv ekspeditsiyalari uchun ham namunalarni tahlil qilib beradi. Bu jarayonda analitik nazorat uchun standart namunalar keng qo‘llaniladi. Mazkur xizmatdan chet el firmalari ham foydalanib, ularning yetakchi ekspertlari tahlil sifatiga yuqori baho bermoqda.

Kombinatda amaliyotga tatbiq etilayotgan texnologiyalarni xalqaro hamjamiyat yuksak e’tirof qilib kelayotganini yuqorida qayd etgan edik. Ularni qo‘llash tufayli ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar haqida ham shunday fikrlarni hech ikkilanmay aytish mumkin. Chunki Navoiy kon-metallurgiya kombinati oltiniga 1994-yilda dunyo bo‘yicha yuqori sifatli qimmatbaho metallar realizatsiyasi bilan shug‘ullanuvchi London oltin quymalari bozori assotsiatsiyasi (LBMA) tomonidan “Optimal yetkazib berish” maqomi berilgan edi.

Xalqaro tamoyilga ko‘ra, bu maqom doimiy berilmaydi, har uch yilda qaytadan tasdiqlashni taqozo etadi. Kombinat ana shunday muvaffaqiyatga izchil erishib kelyapti. Qolaversa, 2019-yilda kombinat mahsulotining bozor talablariga to‘liq muvofiqligi bo‘yicha navbatdagi sinovlardan muvaffaqiyatli o‘tganini tasdiqlovchi sertifikatga ham ega bo‘lgan edi.

2023-yil 26-iyun kuni Londondan yana bir xushxabar keldi. Oltin quymalari bozori assotsiatsiyasi Navoiy kon-metallurgiya kombinatining “Optimal yetkazib beruvchi” maqomini yana bir bor tasdiqladi.

— London qimmatbaho metallar bozorida o‘z mahsulotini sotadigan barcha qimmatbaho metallar ishlab chiqaruvchi kompaniyalar oltin yetkazib berish mas’uliyati bo‘yicha ko‘rsatmaga rioya qilishlari shart, — deydi kombinat texnik nazorat xizmati boshlig‘i Baxtiyor Xolmurodov. — Aslida, bu har yili kompaniyalarning mustaqil xalqaro audit tekshiruvlaridan o‘tishini anglatadi. Bu holat ishlab chiqarilgan oltinning barcha talablarga to‘liq javob berishini ta’minlaydi.

Kombinatimizning 2022-yil faoliyatiga “DELOITTE va TOUCHE” xalqaro auditorlik kompaniyasining xulosasi asosida 2023-yil 19-iyun kuni London qimmatbaho metallar bozorining RGG (Responsible Gold Guidance) “Oltinni mas’uliyatli boshqarish bo‘yicha qo‘llanma” sertifikati ham berildi.

Xalqaro iqtisodiy nufuzga doir bu kabi ishlar Navoiy kon-metallurgiya kombinati jahonning yirik oltin ishlab chiqaruvchi kompaniyalari o‘rtasida mustahkam o‘rin egallashiga zamin yaratmoqda. Kombinat bugungi kunda dunyodagi o‘nta yirik oltin ishlab chiqarish kompaniyalari orasida to‘rtinchi o‘rinni egallab turibdi.

Mamlakatimiz o‘z taraqqiyotining yangi davriga qadam qo‘ymoqda. Keng ko‘lamli islohotlar samarasi har bir soha va jabhada ko‘zga tobora yaqqolroq tashlanyapti. Bugungi davr, ya’ni dunyoda bo‘layotgan o‘zgarishlar, globallashuv jarayonlari, jahon bozorida raqobatning kuchayishi har bir korxonadan yuqori texnologiyalarga asoslangan ishlab chiqarishni rivojlantirish, har bir mutaxassis-rahbardan fidoyilik bilan kuyib-yonib mehnat qilishni taqozo etadi. Shunda uning samara-yu mevasidan yanada ko‘proq bahramand bo‘linadi.

Zero, oltinni ham boshqa ma’danlardan tozalab olish uchun u elektropechlarda 1200 darajagacha bo‘lgan issiqlikda eritiladi. Shu kabi texnologik jarayonlardan o‘tganidan so‘ng oltin 99,99 navli (proba) metalga aylanadi.

Fikrimizcha, mazkur texnologik jarayon zamirida ham hayotiy bir hikmat mujassam. Bu doimo yonib-kuyib ishlayotgan, dunyo miqyosida ham hamkasblariga qaraganda ilmiy-texnologik salohiyatda bir qadam oldinda yurgan mutaxassislarning kundalik fidoyi zahmati evaziga erishiladigan samaraga o‘xshab ketadi. Shu bois, oltin zanglamaydi, asl qiymati va qudrati bilan odamlar uchun boshqa javohirlarga nisbatan hamisha ustun turadi. Binobarin, odamlarga kerakli va lozim narsalarning bahosi ham oltin orqali belgilanadi.

XALQARO ANJUMAN

Boshlanishi 1-betda

Tadbirda xorijlik mutaxassislar har bir mamlakatning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishida hal qiluvchi o‘rin egallagan transport sohasida yirik infratuzilma loyihalarini amalga oshirish tajribasiga to‘xtalib o‘tdi. Shuningdek, xalqaro yuk tashish va logistikani rivojlantirish orqali davlatlar va mintaqalar o‘rtasida xalqaro savdoni kengaytirish, barqaror iqtisodiy o‘sish va farovonlikni ta’minlashda birgalikdagi sa’y-harakatlar ahamiyati yuzasidan fikr almashildi.

MUSHTARAK MAQSADLAR YO‘LIDAGI HAMKORLIK

yangi imkoniyatlarga yo‘l ochadi

Ilhom MAHKAMOV, O‘zbekiston Respublikasi transport vaziri:

— Azaldan o‘zaro hurmat va ishonch, savdo va transport-kommunikatsiya aloqalari do‘st xalqlarimizni birlashtirib kelgan. Hozir ham transport koridorlari tarmog‘ini kengaytirish hamda mintaqalarimizning tranzit salohiyatini oshirish qo‘shma hamkorlik faolligiga bog‘liq. Shu ma’noda, O‘zbekistonning mintaqaviy hamkorlikni, jumladan, Xalqaro transport forumi, SARES, ESKATO, TRACEKA, BMT-ning Yevropa iqtisodiy komissiyasi, Turkiy davlatlar tashkiloti kabi xalqaro sheriklar bilan munosabatlarni mustahkamlashi yo‘lida ijobiy o‘zgarishlar yuz berdi. So‘nggi besh yilda mamlakatimizda xalqaro yuk tashuvining barqaror o‘sishi kuzatilib, o‘rtacha yillik sur’ati 8 foizni tashkil etdi.

Tashqi savdo va tranzit yuk tashuvlari hajmini oshirish maqsadida Yevropa Ittifoqi hamda MDH davlatlaridan O‘zbekiston — Afg‘oniston — Pokiston orqali Hind okeani portlariga chiqish imkoniyatiga ega yangi multimodal transport yo‘nalishlarini shakllantirish bo‘yicha faol ishlar olib borilmoqda. Transchegaraviy savdoni, shuningdek, MDH davlatlarining Janubiy Osiyo mamlakatlari bilan savdo aloqalarini rivojlantirishni rag‘batlantirish maqsadida “Termiz” xalqaro savdo markazi qurildi. Bundan tashqari, O‘zbekiston — Afg‘oniston — Pokiston temir yo‘li qurilishi loyihasini amalga oshirish bo‘yicha salmoqli ishlar bajarilmoqda.

Loyihaning amalga oshirilishi natijasida Markaziy Osiyo mamlakatlari uchun Pokiston va Hindiston temir yo‘llariga, shuningdek, Arabiston dengizi portlariga chiqadigan yangi va eng qisqa tranzit koridorlarini shakllantirish hamda yuk tashish vaqti va narxini 30-40 foiz kamaytirish imkoniyati yaratiladi.

Transport sohasida davlat boshqaruvini samarali tashkil etish maqsadida ushbu tarmoqda islohotlar amalga oshirilmoqda. Misol uchun, sohani liberallashtirish natijasida O‘zbekistonda xorijiy va xususiy aviakompaniyalar ochilgani hisobiga sog‘lom raqobatni yaratish imkoniyati paydo bo‘lganini ta’kidlash mumkin. Natijada mamlakatda 5 ta xususiy aviakompaniya ish boshladi. Qanot Sharq Airlines, Silk Avia, Humo Air, Panorama Airways, Centrum Air shular jumlasidan.

Markaziy Osiyoning jahon bozorida raqobatbardoshligini ta’minlash maqsadida mintaqamizdagi iqtisodiy manfaatlarimizni yanada faol ilgari surish vaqti keldi. Ushbu forum ochiq fikr almashish va yangi, ilg‘or g‘oyalarni ilgari surish, qo‘shma tashabbuslarni shakllantirishga yordam berishi bilan ahamiyatli. Birgalikdagi sa’y-harakatlarimiz orqali transport tarmog‘ini xalqlarimiz ravnaqi yo‘lida xizmat qiluvchi yanada samarali, izchil rivojlanayotgan xavfsiz sohaga aylantira olishimizga ishonch bor.

Innokentiy BELYAKOV-ZAGUMENOV, “DB Engineering & Consulting GmbH” kompaniyasining loyihalar menejeri (Germaniya):

— Mamlakatingiz temir yo‘l transportining transport-logistika sektorini rivojlantirishda O‘zbekiston va Germaniya temir yo‘llari o‘rtasidagi hamkorlik tarixi va istiqbollari bilan tanishish imkoniyati yaratilgani uchun minnatdorlik bildiraman.

Biz yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi doirasida yurtingizni barqaror rivojlantirish hamda uning jahondagi nufuzini oshirish, shuningdek, transport-logistika tizimini yaxshilash borasidagi keng ko‘lamli islohotlardan xabardormiz. Mazkur islohotlar tufayli O‘zbekiston iqtisodiyotining izchil o‘sishi transport-kommunikatsiya kompleksini jadal rivojlantirishni talab etmoqda.

Temir yo‘l infratuzilmasi murakkab va kapital talab qiluvchi tizim bo‘lib, dastlabki qo‘shma loyihalarimizdan biri — Angren — Pop temir yo‘l liniyasini qurish va elektrlashtirish bo‘yicha amalga oshirilgan keng ko‘lamli loyiha Farg‘ona vodiysini Toshkent viloyati bilan bog‘lash imkonini berdi. Germaniyalik mutaxassislar ishtirokida mazkur loyiha doirasida MDHda o‘ziga xos — uzunligi 19 kilometrdan ortiq bo‘lgan temir yo‘l tunneli barpo etildi. “DB Engineering & Consulting GmbH” kompaniyasi murakkab tog‘li hududlarda tunnel qurishda ilg‘or uslub va texnologiyalarni qo‘lladi. Ushbu loyiha “O‘zbekiston temir yo‘llari” AJning “DB Engineering & Consulting GmbH” kompaniyasi bilan turli infratuzilma obyektlarini qurish bo‘yicha hamkorligini mustahkamladi. Ayni paytda Buxoro — Miskin — Urganch — Xiva liniyasini elektrlashtirish ishlari birgalikda bajarilmoqda. Mazkur loyiha tufayli O‘zbekistonning turizm salohiyatini kengaytirish, tranzit yo‘laklari o‘tkazish imkoniyatini kengaytirish va havoga chiqadigan zararli gazlarni kamaytirish mumkin. Loyiha yakuniga yetgach, tezyurar poyezdlarni ishga tushirish rejalashtirilgan. Bu esa yo‘lovchilarning Toshkentdan Urganchgacha qatnov vaqtini 7 soatga (hozir 18 soat) qisqartiradi.

Bu loyihalarning barchasi O‘zbekiston va mintaqaning jadal rivojlanishiga mamlakatingiz va Germaniya kompaniyalarining o‘zaro manfaatli hamkorlikdagi sa’y-harakatlari orqali erishish mumkinligini tasdiqlaydi. Shubhasiz, transport sohasidagi islohotlar natijasi O‘zbekiston temir yo‘llari va butun transport tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish imkonini beradi. Bu esa mamlakat taraqqiyoti va aholi yashash sifatini oshirishga samarali ta’sir ko‘rsatadi.

Mayk FORMOSO, “PSA International” kompaniyasining mintaqaviy rahbari (Singapur):

— Bugungi tadbirda ishtirok etganimdan bag‘oyat mamnunman. Tadbir O‘zbekistonning Markaziy Osiyoda tutgan o‘rni, transport tranzit salohiyatini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi deb o‘ylayman.

O‘zbekistonda transport-logistika markazlari qurish bo‘yicha loyihani amalga oshirayotgan ekanmiz, uning ishga tushirilishi mamlakatingizning transport-tranzit salohiyatini, temir yo‘llar qurilishi, avtomobil yo‘llarida yuklar tashish borasida muhim ahamiyat kasb etadi.

Umuman, loyihani O‘zbekistonda amalga oshirishdan asosiy maqsad yurtingizda ishlab chiqarilgan mahsulotlarni qo‘shni mamlakatlar, xususan, Markaziy Osiyo davlatlariga yetkazish, O‘zbekistondagi ishlab chiqaruvchi korxonalarga esa xomashyoni tez fursatda sifatli yetkazib berishdir.

Yurtingizdagi bir qancha ishlab chiqarish korxonalarida bo‘ldik. Ularning ishlab chiqarish jarayonini o‘rganib, zaruriy xomashyolarni qanday keltirish bo‘yicha ishlayapmiz. Bundan tashqari, O‘zbekistonda transport-logistika markazlariga mahsulot yetkazib berishni raqamlashtirish ishlari ham jadal davom etmoqda.

Ko‘plab xorijiy kompaniyalar ishtirok etgan bu tadbirda aviatsiya, temir yo‘l, mahsulotlarni yetkazib berish, raqamlashtirish bo‘yicha fikr almashdik. O‘ylaymanki, bu nafaqat men uchun, balki hamma ishtirokchilarga foydali bo‘ldi.

* * *

Jamiyatning har tomonlama farovonligi — oila mustahkamligi, xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligiga bog‘liq. Shu bois, mamlakatimizda oila, xotin-qizlar hamda yoshlarning huquq va manfaatlarini himoya qilish, jamiyatdagi mavqeini yanada mustahkamlash, bandligini ta’minlash, kasb egallashi va tadbirkorlik faoliyatiga ko‘maklashish, ularni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash, gender tenglikni ta’minlash borasida konseptual g‘oyalar amalga oshirilmoqda.
Poytaxtimizda mazkur xalqaro sheriklik tashabbuslari haftaligi doirasida bo‘lib o‘tgan “Xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy hayotdagi roli va iqtisodiy imkoniyatlarini kengaytirish” mavzusidagi anjumanda shu xususda so‘z yuritildi.

Tilek TEKEBAYEV, Qirg‘iz Respublikasi transport va kommunikatsiyalar vaziri:

— Aynan transport-infratuzilmaviy kommunikatsiyalarni takomillashtirish va Markaziy Osiyoga xalqaro tranzit yuk tashuvchilarini jalb etish mintaqa davlatlarini birlashtiruvchi eng muhim yo‘nalishlardan biridir. Shu ma’noda, Xitoy — Qirg‘iziston — O‘zbekiston temir yo‘li qurilishi loyihasining amalga oshirilishi Markaziy Osiyoni yaxlit logistika xabiga, ya’ni jahonning muhim bozoriga aylantirishga hissa qo‘shadi.

Uldis REYMANIS, Latviya Respublikasi transport vazirligi davlat kotibi o‘rinbosari:

— Yevropa va Osiyo o‘rtasida xalqaro savdoni rivojlantirish orqali barqaror iqtisodiy o‘sish va farovonlikni ta’minlashda transport va logistikaning o‘rni alohida. Markaziy Osiyo va Yevropa Ittifoqi o‘rtasida intermodal va multimodal transchegaraviy hamda tranzit transport xizmatlari ko‘rsatishni rivojlantirish, shuningdek, Boltiq dengizi multimodal koridori orqali Yevropa Ittifoqidan Markaziy Osiyo mamlakatlari uchun yetkazib berish zanjiri salohiyatini mustahkamlash va kengaytirish dolzarb vazifa. Aynan transport sohasidagi o‘zaro hamkorligimiz ushbu vazifani uddalashga xizmat qilmoqda.

Tadbir davomida o‘zaro bog‘liqlikni barcha transport sohalarida rivojlantirish yuzasidan dolzarb takliflar ilgari surildi. Mazkur yo‘nalishda yangi transport koridorlarini tashkil etish bo‘yicha O‘zbekiston tomonidan ilgari surilayotgan loyihalar esa alohida e’tirofga loyiq.

Zulayho MAHKAMOVA, Bosh vazir o‘rinbosari:

— “Ayolni e’zozlash — ezgulik va adolat mezoni” degan g‘oyani hayotga tatbiq etish maqsadida mamlakatimiz aholisining qariyb yarmini tashkil etadigan xotin-qizlarning jamiyatdagi o‘rni va nufuzini oshirish, iste’dodi va qobiliyatini ro‘yobga chiqarish, onalik va bolalikni himoya qilish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Ularni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish tizimini yanada takomillashtirishga qaratilgan 100 ga yaqin normativ-huquqiy hujjat qabul qilindi.

2022-2026-yillarda xotin-qizlarning mamlakat iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy hayotining barcha jabhalarida faolligini oshirish bo‘yicha milliy dastur, 2030-yilga qadar O‘zbekiston Respublikasida gender tenglikka erishish strategiyasi qabul qilingani bu borada e’tiborga molik ishlardan bo‘ldi. Shuningdek, xotin-qizlarning ijtimoiy va siyosiy faolligini yuksaltirish, iqtisodiy imkoniyatini oshirish, ta’lim, sog‘liqni saqlash yo‘nalishlarida qo‘llab-quvvatlash, Oila institutini mustahkamlash borasida qilingan ishlarni mamnuniyat bilan qayd etish mumkin.

Shu bilan birga, hali bajarishimiz zarur bo‘lgan ishlar ko‘p. Xususan, ilg‘or tajriba asosida xotin-qizlarning ta’lim olish imkoniyatini kengaytirish va bu borada manfaatli hamkorlik qilish, xotin-qizlar o‘rtasida tadbirkorlikni yanada rivojlantirish bo‘yicha xalqaro tajriba almashish, sog‘liqni saqlash, onalik va bolalikni muhofaza qilish, ilm-fan, ta’lim sohalari va madaniy-gumanitar yo‘nalishdagi hamkorlikni yangi bosqichga ko‘tarish, barqaror taraqqiyotga xizmat qiladigan samarali qarorlar qabul qilish uchun xalqaro hamjamiyatning sa’y-harakatlarini birlashtirish zarur.

Hamkorlikda izlanish va o‘zaro manfaatli qarorlar qabul qilish — tinchlik, barqarorlik va taraqqiyotni ta’minlash singari ezgu maqsadlarimizga erishish imkonini beradi. Xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha O‘zbekiston amaliyoti bilan o‘rtoqlashar ekanmiz, bu borada xorijlik mehmonlarimizning hayotiy faoliyati va samarali tajribasi ham biz uchun yuqori ahamiyat kasb etadi.

Janna BELSKAYA VANDERBEYEKEN, “Singapore Fashion Association” konsultanti, Bryussel ayollarning imkoniyatlarini kengaytirish assotsiatsiyasi a’zosi (Singapur):

— Ayol sifatida biz ulkan imkoniyatlar davrida yashayapmiz. Biz nafaqat ayol, qiz, ona va opa-singil, ayni paytda orzularimizni amalga oshiradigan professionallar sifatida ham namoyon bo‘lishga intilamiz. Bugun O‘zbekistonda va dunyoda ayollar tadbirkorligi gullab-yashnayotgan go‘zal davrning cho‘qqisida turibmiz. Bu, albatta, ayollarning biznes sohasida ishtirok etishini qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan e’tibor tufaylidir.

Bugun “O‘zeltexsanoat” uyushmasi bilan hamkorlikda qator yo‘nalishlarga e’tibor qaratganimni aytmoqchiman. Bular mahalliy brendlarni ravnaq toptirish, yengil sanoatni rivojlantirish, global integratsiya, raqamlashtirish hamda ta’lim. Har bir yo‘nalish qator loyihalarni o‘z ichiga oladi. Biz bu loyihalar orqali hamkorlikda ancha ish qilishimiz mumkin. Ishlab chiqaruvchilar bilan aloqa o‘rnatish orqali mahalliy brendlar rivojlanishiga ko‘maklashish, yengil sanoat sohasida startaplarga yordam berish uchun inkubator dasturi yaratishni rejalashtirganmiz.

Mahalliy ta’lim muassasalari bilan hamkorlikda moda bo‘yicha treninglar tashkil etiladi. O‘zbekiston ishlab chiqaruvchilarini xalqaro mijozlar bilan bog‘laydigan platformani ishlab chiqish, innovatsiyasi bo‘yicha tadqiqot va ishlanmalarni amalga oshirish, barqaror moda bo‘yicha hamkorlikni rag‘batlantirish, savdo sohasida o‘sish va innovatsiyalarni rag‘batlantirish uchun elektron biznesning raqamli transformatsiyasini qo‘llab-quvvatlash oldimizda turgan muhim vazifalardan.

Sadagat GAHRAMONOVA, Ozarbayjon Respublikasi Oila, ayollar va bolalar davlat qo‘mitasi raisi o‘rinbosari:

— Har gal O‘zbekistonga kelganimda oila, ayollar, mahalla hayotiga oid ibratli jihatlarga guvoh bo‘laman. 44 yildan beri rahbarlik lavozimida faoliyat ko‘rsatib kelaman. To‘rt farzandim bor. Tajribamdan shunga ishonch hosil qilganmanki, ayollar ish joyiga kelgach ham baribir oiladagi muammolar, o‘zlari duch kelayotgan ijtimoiy masalalar haqida bosh qotiradi. Shu sabab ayollarni kasbiy rivojlantirishda ularni o‘ylantirayotgan dolzarb masalalarni hal etish muhim ahamiyatga ega. Ozarbayjonda ham yolg‘iz, ehtiyojmand ayollarning iqtisodiy jihatdan mustaqilligini ta’minlash maqsadida doimiy biznes seminarlar o‘tkazib kelinadi.

> **Ayol sifatida biz ulkan imkoniyatlar davrida yashayapmiz. Biz nafaqat ayol, qiz, ona va opa-singil, ayni paytda orzularimizni amalga oshiradigan professionallar sifatida ham namoyon bo‘lishga intilamiz. Bugun O‘zbekistonda va dunyoda ayollar tadbirkorligi gullab-yashnayotgan go‘zal davrning cho‘qqisida turibmiz. Bu, albatta, ayollarning biznes sohasida ishtirok etishini qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan e’tibor tufaylidir.**

Roza AHMADIYEVA, Qozon davlat madaniyat instituti rektori (Rossiya Federatsiyasi):

— O‘zbekistonda inson kapitaliga, ta’lim rivojiga katta e’tibor qaratilmoqda. Mamlakatingizning taraqqiyot yo‘li juda to‘g‘ri tanlangani islohotlar natijasidan ham ko‘zga yaqqol tashlanmoqda. Bunday keng qamrovli o‘zgarishlar jarayonida ayollarga, ularning jamiyatda o‘rni va mavqeini topishiga katta e’tibor qaratilmoqda. Zero, avlodlar davomchilari, tarbiyachilari ham aynan ayollardir.

Hozir barcha yo‘nalishda, jumladan, muzey sohasida ham ijodiy loyihalar paydo bo‘lmoqda. Ayni paytda deyarli barcha muzey va kutubxonalarda raqamli texnologiyalar joriy etilmoqda. Shunday qilib, ekspozitsiya va ko‘rgazmalar yaratishda dizaynerlarga tobora ko‘proq murojaat qilinmoqda. Yuqori sifatli muzey va ko‘rgazma mahsulotini olish uchun dizaynerlar, dasturchilar va gamifikatsiya sohasidagi mutaxassislar bilan hamkorlikda ishlash kerak. Universitetimiz muzey va kutubxona sohasida raqamli texnologiyalar bilan ishlash bo‘yicha katta tajriba to‘plagan va biz tajribamizni o‘rtoqlashishga tayyormiz.

“Yangi O‘zbekiston” muxbiri Risolat MADIYEVA yozib oldi.

YANGI O‘ZBEKISTON
www.yuz.uz yuz.uznews yuz_official yuz.uz.news

ADABIY ALOQALAR

Do‘stlik gulim so‘lmas mening

G‘ayrat MAJID,
O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi raisi o‘rinbosari, shoir

Boshlanishi 1-betda

Ko‘nglimga yorug‘ tuyg‘u, hayajon bergan shoir ruhiga duoi xayrlar qilib, yo‘lga otlandim. Safardoshlarim — Prezident Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi direktori o‘rinbosari G‘ayrat Bozorov va boshqa do‘stlarimiz allaqachon yetib kelgan ekan. Ro‘yxatdan o‘tdik, yuklarimizni topshirdik. Nasib etsa, yaqin daqiqalarda bulutlarni pastda qoldirib, qaydasan, Istanbul, deya parvoz qilamiz.

Bundan oldin, ya’ni 2022-yil 8-10-mart kunlari o‘tkazilgan “7-xalqaro Istanbul noshirlik kasbiy uchrashuvlari” xalqaro anjumanida ham yurtimiz vakillari ishtirok etgan. Unda 2023-yil o‘tkaziladigan tadbirda mamlakatimizga “Alohida e’tibor qaratilgan davlat” maqomi berilgan va ramziy estafeta yorlig‘i topshirilgan edi. Mas’uliyat ham shunga yarasha bo‘ldi, “8th Istanbul publishing Fellowship” tadbiriga chamasi bir oylar tayyorgarlik ko‘rildi. Xalqimizning buyuk adabiyoti va san’atini targ‘ib etish ishlari, noshirlar va ular nashr etgan kitoblar ko‘rgazmasi, hunarmandlar va ularning buyumlari namoyishi, tadbirda o‘qiladigan ma’ruzalar matni va mavzu ko‘lami, qisqasi, eng kichik masalalargacha hech narsani nazardan qochirmaslikka harakat qildik...

Uchoq Istanbul aeroportiga kelib qo‘ndi. Turk qardoshlarimiz bizni “merhaba”, “gunaydin”, deya ochiq chehra bilan kutib oldi. Aeroport shahardan bir oz olisda, chamasi 30-40 daqiqalarda “Windsor” mehmonxonasiga yetdik. Tekis va ravon yo‘lning ikki chetidagi daraxtlar va gullar ajib bir manzara kasb etgan. Axborot-ishora belgilari aniq va tartib bilan berilganki, turk tilini ozgina bilgan odam ham adashmay manziliga yetib oladi.

Mehmonxonaga joylashib, yengilgina tushlik qilib, tadbir bo‘lib o‘tadigan manzilga yo‘l oldik. Yurtimizdan borgan noshirlar kitoblar, hunarmandlar esa san’at buyumlarini ko‘rgazmaga chiroyli qilib tayyorlab qo‘yganini ko‘rib xursand bo‘ldik, xotirjam tortdik. Anjuman uchun tanlangan joy XVIII asr o‘rtalarida qurilgan bo‘lib, ikki yuz yildan ko‘proq vaqt harbiylarning istehkomi sifatida xizmat qilgan ekan. Hozir kutubxonaga aylantirilgan bu go‘sha tarixga qiziqadigan, kitobni sevadigan har qanday kishining e’tiborini tortadi.

Kutubxonaga aylangan harbiy istehkom

Ziyo maskani Istanbul shahrining Ayyub Sulton tumanidagi qadimiy Ramiy mahallasida joylashgani tufayli Ramiy kutubxonasi deb nomlangan. Ko‘chaning shundoqqina yuzida joylashgan kutubxona hovlisiga qadam qo‘yar ekansiz, chinakamiga moziyga tushasiz-qo‘yasiz. Otlarning dupuri, askar-u zobitlarning shaxdam qadam tovushlari eshitilgandek bo‘ladi. Ta’mirchi ustalar ishiga qoyil qolmaslikning iloji yo‘q. Hovli va uning atrofidagi binolar bir qarashda o‘zimizdagi Ko‘kaldosh madrasasini eslatadi.

Tarixiy ma’lumot: usmoniylar sulolasining o‘ttizinchi sultoni Mahmud Ikkinchi 1826-yili yanicharlar polkini tarqatib yuborib, o‘rniga musulmonlardan iborat armiya tashkil etadi. Ramiy qishlog‘i askarlar uchun kazarma sifatida tanlanadi. Sulton Mahmud Ikkinchi 1828-1829-yillarda yuz bergan Turk — Rossiya urushining harbiy va ma’muriy boshqaruvini shu kazarmadan turib amalga oshirgan. O‘tgan asrning 70-yillariga kelib, bino oziq-ovqat bozoriga aylantiriladi. Oqibatda tarixiy inshoot juda abgor holga tushadi. 2010-yilda Istanbul dunyo madaniyati poytaxti deb e’lon qilinishi munosabati bilan Turkiya Prezidentining ko‘rsatmasiga binoan tarixiy shamoyilini saqlab qolgan holda ta’mirlanadi. Qurilish ishlari 10 yildan ortiq davom etgan bino zamonaviy kutubxonaga aylantiriladi. Joriy yil boshida uning ochilish marosimi bo‘lib o‘tdi va unda Turkiya Prezidenti, qator davlat va jamoat arboblari ishtirok etdi.

Kutubxona deyapman-u, bir jihatdan u tarixiy muzeyga ham o‘xshab ketadi. Xattotlik san’atining eng nodir namunalari sifatida asrab kelinayotgan muqaddas Qur’on va hadis kitoblari, turli davrlarda yozilgan qo‘lyozma va toshbosma asarlar, zobitu askarlarning qurol-aslahalari kabi tarixiy ashyolar sayyohning ham, kitobxonning ham e’tiborini birdek tortadi. Kutubxona dam olish kunisiz, kecha-yu kunduz 24 soat davomida kitobxonlarga xizmat qiladi. O‘quvchilarga bepul choy, qahva va sho‘rva tarqatiladi. 36 ming metr kvadrat yopiq maydonga ega kutubxona, aytishlaricha, shu jihatdan dunyoning uchinchi eng katta kutubxonasi hisoblanar, 51 ming metr kvadrat yashil maydonga egaligi bilan esa dunyoda birinchi o‘rinda turar ekan.

Kutubxona hovlisidagi gullar, daraxtlar, landshaft dizayn kishi bahri dilini ochadi. Ichkariyu tashqariga qo‘yilgan 4200 dan ortiq o‘rindiq kitobxonlar bilan to‘la. Asosan, yoshlar — talabalar, o‘quvchilar. Havasing keladi. Bir vaqtlar bu joylar harbiy istehkom bo‘lganiga ishonging ham kelmaydi. Ammo lozim bo‘lganki, bir zamonlarda bu inshoot Vatan mudofaasi uchun harbiy istehkom vazifasini o‘tagan, mantiqan olib qaraganda, uning bugungi vazifasi ham aynan shunday maqsadga — Vatan mudofaasiga, uning tinchligi, daxlsizligi, taraqqiyoti uchun munosib posbon bo‘la oladigan ilmu ma’rifat ahli uchun xizmat qilmoqda.

Kutubxona sayohati davomida yana bir holat meni hayratga soldi. Ajablanarlisi, uch yoshgacha bo‘lgan bolalarga mo‘ljallangan bo‘lim ham bor ekan. Bu yerda bolakaylar aslo zerikmaydi, chunki ular uchun 10 mingga yaqin kitob va ko‘rgazmali material mavjud. Bolalar o‘yingohi, kino va teatr namoyishxonalari, bepul Wi-Fi — barchasi kitobxonlar uchun. Universitetga tayyorgarlik ko‘radigan yoshlarga bepul test sinovlari ham taqdim etiladi.

Ramiy kutubxonasi ko‘plab tadbirlar o‘tkazish mumkin bo‘lgan madaniyat markazi sifatida ham faoliyat yuritadi. Biz buning guvohi bo‘ldik. Shu yilning 6-8-iyun kunlari bo‘lib o‘tgan “8th Istanbul publishing Fellowship” anjumaniga 37 mamlakatdan 214 kishi bevosita ishtirok etgan bo‘lsa, 55 davlatdan 196 kishi onlayn qatnashdi. Birgina yurtimizdan o‘ttizga yaqin nashriyot-matbaa xodimi va ijodkor bordi. Ochilish marosimida G‘ayrat Bozorov so‘zga chiqib, mamlakatimizda kitob va kitobxonlikka berilayotgan yuksak e’tibor, noshirlik sohasida erishilayotgan natijalar, xususan, yurtimizda o‘tkazib kelinayotgan “Tashkent book fest” festivalining yildan-yilga nufuzi oshib borayotgani haqida so‘zladi va Meksika vakillariga “Alohida e’tibor qaratilgan davlat” maqomi — ramziy estafeta yorlig‘ini topshirdi.

Shundan so‘ng men va taniqli shoir Muhiddin Omon yurtimizda ijod ahliga berilayotgan e’tibor, Adiblar xiyoboni, ijod maktablari, yoshlarimizning ko‘p ming nusxada ilk kitoblari nashri va ularning umumta’lim maktablari hamda kutubxonalarga bepul tarqatilishi haqida so‘zlab berdik. Kitob aksiyalari doirasida kitoblarning bepul tarqatilishi, “Turkiy adabiyot durdonalari” yuz jildligi nashri bilan bog‘liq xushxabarlar barchani quvontirib yubordi. Ayniqsa, yosh ijodkorlarga berilayotgan e’tibor va ijod maktablari bilan bog‘liq tajriba xalqaro anjuman ishtirokchilarini hayajonga soldi. Davlatimiz rahbari tashabbusi bilan O‘zbekiston Milliy bog‘i yaqinida Prezident kutubxonasi qurilishi rejalashtirilgani, uning Adiblar xiyoboni va bog‘dagi boshqa ma’naviy-ma’rifiy obyektlar bilan yaxlit majmuaga aylanishi kutilayotgani, 4 qavatli bu maskan bir vaqtda 1 ming 400 dan ziyod kitobxonga xizmat ko‘rsata olishi, kutubxonada 1 million 500 mingta kitob saqlanishi bilan birga elektron adabiyotlar, multimedia mahsulotlari ham bo‘lishi haqida aytganimizda, o‘tirganlarning ko‘zlari chaqnab ketdi. Hatto yig‘ilishdan so‘ng bir nechta davlat vakillari kelib, bu haqda ko‘proq ma’lumot bering, O‘zbekistonda adabiyot sohasidagi islohotlar haqida o‘zimizda ham targ‘ibot olib boramiz, deganlar bo‘ldi. Kutubxona, bosmaxona, nashriyot xodimlari bilan tadbirlar davomida tashkil etilgan uchrashuvlar tajriba almashish, ijodiy tashkilotlar bilan hamkorlik memorandumlarini imzolash, yangi-yangi asarlar tarjimasi va nashrini birgalikda yo‘lga qo‘yish singari maqsad va rejalar amaliyotiga qaratildi.

Ramiy kutubxonasi mudiri Ali Chelik bilan uzoq suhbatlashdik.

— Kutubxonamiz dunyodagi eng katta va eng go‘zal kutubxonalardan biridir, — dedi Ali Chelik faxr bilan. — U 40 tildagi 2 milliondan ziyod kitob fondiga ega. Unda markaziy osiyolik allomalarning qo‘lyozma asarlari ham alohida o‘rin egallagan. Bu yerda uchta yirik restavratsiya ustaxonasi bor. Saksonga yaqin mutaxassis restavrator, mikrobiolog, kimyogarlar qimmatbaho qo‘lyozmalar asl holida saqlanishiga mas’ul. Erta-indin yangi nashrlardan iborat o‘zbek bo‘limini ham ochamiz. Shu kunlarda ikki yuz ellik yillik tarixga ega kutubxonamiz binosining UNESKO tomonidan dunyo madaniy merosi ro‘yxatiga kiritilishi uchun kerakli hujjatlarni tayyorlayapmiz. Bu amalga oshsa, kutubxonamizning nufuzi yana ham yuksaladi. Darvoqe, kutubxonadan nafaqat mahalliy, balki xorijiy kitobxonlar ham bemalol foydalanishi mumkin.

Kutubxona mudiri so‘zlarini tinglar ekanman, beixtiyor o‘z yurtimiz haqida o‘ylab ketdim. Bizda 12,5 mingdan ortiq kutubxona faoliyat yuritadi. O‘zbekiston Milliy kutubxonasi esa qadimiy ziyo o‘chog‘i bo‘lib, 1870-yilda tashkil etilgan. Hozir 8 milliondan ortiq asar fondiga ega, tasarrufida 200 ta kutubxona bor. Milliy kutubxona haqiqiy xazinaning o‘zi. Undagi qo‘lyozma va toshbosma nashrlarni ko‘rganman. Talabalik paytimda ustoz Boybo‘ta Do‘stqorayev rahbarligida 1922-yilda nashr etilgan, bor-yo‘g‘i ikki soni chiqib, keyin to‘xtab qolgan “Haqiqat” jurnali faoliyatini o‘rganganman. Jurnalni to‘liq hozirgi alifboga o‘girganman. O‘shanda xayolimdan o‘tgan — bu joy misoli dengiz, ichi to‘la dur-u marjonlar, asl g‘avvoslarni kutib turibdi...

Ijodkor bo‘lganim uchun Turkiyadagi kutubxonalar soni bilan ham qiziqdim. Turkiya Statistika instituti ma’lumotlariga ko‘ra, mamlakatda 34 557 ta kutubxona faoliyat yuritadi. Ulardagi kitoblar soni sakson millionga yaqin. Turkiya chop etilayotgan kitob nomlari bo‘yicha dunyoda yettinchi, adadi jihatidan o‘ninchi o‘rinda turadi. Birgina o‘tgan yili 80 ming nomda 800 million nusxada kitob nashr etilgan. Turkiyaning viloyatlar markazi va tumanlarda Madaniyat va turizm vazirligiga qarashli 1258 ta xalq kutubxonasi faoliyat yuritmoqda.

Bular birgina Ramiy kutubxonasida bo‘lib o‘tgan tadbirlar bahonasida olgan taassurotlarimiz. Ushbu tadbirlarda ishtirok etgan nashriyot-matbaa xodimlari qancha-qancha yangiliklar oldi. Dunyoning turli chekkalaridan kelgan ishtirokchilar bizdan, biz ulardan nimalarnidir o‘rgandik. Fursati bilan bularning barchasi yurtimizda ham, albatta, tatbiq etiladi.

Shahar bo‘ylab sayohat

Men uch marta Turkiyaga taklif etilganman. Ammo ikki martasida turli sabablarga ko‘ra borish nasib etmagan. Hozir esa O‘ziga shukr, dunyoning istalgan mamlakatiga hech bir to‘siqlarsiz borib-kelish imkoniyati bor. Bu ham davlatimizda yuritilayotgan oqilona siyosat natijasi. Xullas, bu yurt meni hamisha ohanrabodek o‘ziga tortib kelgan. Gazeta-jurnal, kitoblarda o‘qiganimdek, Istanbul o‘zimizning Samarqandga o‘xshagan qadim tarixga ega shahar ekan. Har ikki shahar ham o‘z vaqtida mamlakat poytaxti bo‘lgan. Har ikkisi ham hozir ma’muriy poytaxt bo‘lmasa-da, davlat uchun eng katta mavqe va maqomga ega shaharlar hisoblanadi. Istanbulda tarixiy yodgorliklar — qadimiy masjidlar, maqbaralar, madrasa binolari, muzeylar ko‘p. Barchasini ko‘rib chiqish uchun bir oy kamlik qiladi-yov. Ammo biz g‘animat ikki-uch kundan unumli foydalanishga harakat qildik. Shu o‘rinda aytib o‘tishim kerak, bu borada menga yaqin do‘stim, “Azon.uz” internet nashrining Turkiyadagi muxbiri, iste’dodli shoir Abdulaziz Muborak katta yordam berdi, ziyoratlar chog‘ida hamrohlik, aniqrog‘i, yo‘lboshchilik qildi. Undan minnatdorman.

Istanbul nafaqat turkiy dunyo, balki butun dunyo sayyohlari e’tiboridagi manzil hisoblanadi. Geografik joylashuvi, iqlim sharoitiga ko‘ra dunyoning hech bir mintaqasida uchramaydigan go‘zal tabiati bor. Osiyo va Yevropa qit’alarini birlashtirgan Bosfor bo‘g‘ozi shu yerda...

Aytishlaricha, Istanbul so‘zi Islombul, ya’ni “Islom taxti” so‘zlaridan kelib chiqqan ekan. Bu taxmin haqiqatga yaqin. Men “Albatta Qustantaniya fath etilajak, uning amiri qanday ham yaxshi amir va uni egallaydigan qo‘shin qanday ham yaxshi qo‘shindir”, degan mazmundagi hadisni o‘qiganman. Shu bois, bu joyni fath etish ko‘plab sahoba, xalifa-yu sultonlarning orzusi bo‘lgan. Bu baxt esa 1453-yil 21 yoshli Sulton Muhammad Soniyga nasib etadi. Shundan so‘ng u Fotih Sulton nomini oladi. Darvoqe, shahar nomini Sulton Muhammad Fotih o‘zgartiradi. Va biz bilgan Istanbulga aylanadi.

Istanbulga kelgan har bir sayyoh To‘pqopi saroyini ko‘rmay qaytmaydi. To‘pqopi Sulton Ahmad va Ayo Sofiya masjidlari bilan yonma-yon joylashgan. Bu Samarqanddagi Registon majmuasiga o‘xshamasa-da, negadir yurtimizdagi tarixiy obidalarni eslatdi. Salkam 400-yil davomida (1465-1853-yillarda) turk sultonlarining qarorgohi bo‘lgan To‘pqopi saroyi bugungi kunda muzeyga aylantirilgan. Muzeyga kirdik. Men Hazrat Payg‘ambarimiz Muhammad sollallohu alayhi vasallam bilan bog‘liq bo‘lim sari oshiqdim. U yerga kirishingiz bilan ruhingiz ajib bir sukunat og‘ushida qoladi. Tilovatdan ko‘nglingiz huzur qiladi. O‘zingiz ham beixtiyor salavot ayta boshlaysiz. Har bir ashyo sizni hayratlantiradi. Ko‘zingizga yosh keladi. Axir siz sarvari koinot Muhammad alayhissalom, ul zotning oila ahllari, sahobalariga tegishli eng nodir ashyolarni o‘z ko‘zingiz bilan ko‘rasiz-da.

Muzeyda 10 ming 700 ta eksponat — osori atiqa saqlanadi. Jahonning eng mashhur muzeylaridan biri hisoblanmish To‘pqopi saroy-muzeyida madaniyat yodgorliklari: qadimiy qo‘lyozmalar, qimmatbaho xattotlik namunalari, xitoy va yapon chinnilari, qurol-yarog‘lar, sultonlarning kiyim-boshlari — hamma-hammasi ko‘z qorachig‘idek saqlanmoqda.

To‘pqopi saroyi, Ayo Sofiya va Sulton Ahmad masjidlari ziyoratidan so‘ng Sulaymoniya masjidi tomon yurdik. Bu ham Istanbuldagi eng muhtasham tarixiy jomelardan biri. Ushbu yodgorlik tevaragida naqshbandiya tariqati pirlarining qabrlari bor. Sulton Sulaymon va Xurram Sultonning ham qabri shu yerda.

Mirzo Ulug‘bekning sadoqatli izdoshi Ali Qushchi bobomiz hamda ulug‘ tasavvufshunos olim, naqshbandiya tariqati piri Mahmud As’ad Jo‘shon Hazratlarining qabrlari ham shu yerda ekan.

Istanbulda tarixiy yodgorliklar ko‘p. Biz ko‘rganlarimiz Ayo Sofiya majmuasi, Ayyub Sulton maydoni, Fotih, Sulaymoniya, Ayyub Ahmad, Yangi jome, Yovuz Sulton Salim kabi qadimiy masjidlar haqida fursati kelganda yana ham batafsil so‘zlab berarmiz. Marmar va Bosfordagi kema sayohatlari hayajonlari haqida aytsak, so‘zimiz tugamaydi. Mashhur Qiz qal’asi haqidagi taassurotlar ham bir olam. Taqsim maydoni, u yerning kecha-yu kunduz faoliyat yuritishi haqida qancha hikoya qilish mumkin. Yana bir gap, moziy va kelajak mushtarak bir shahar — Istanbul. Ko‘p qavatli binolari, katta-yu kichik sanoat korxonalari, savdo va madaniy markazlarni ko‘rib, bunga amin bo‘lmaslikning iloji yo‘q. Darvoqe, Bosfor bo‘ylarida ustozlarimiz Abdulla Oripov, Mirzo Kenjabek singari shoirlarimizning Turkiya taassurotlari haqida yozgan asarlari bir-bir xayolimdan o‘tdi.

Mening ham ko‘nglimdan kechganlari misralarga aylandi:

Talpingandek sohilga Bosfor,
Lablarimning sohilidan o‘p.
Shunday deya takror va takror,
Sen kirasan tushlarimga ko‘p.

Chayqaladi shovillab osmon,
Bag‘ri to‘la ming bitta yulduz.
Men ming bitta o‘y bilan inon,
Yolg‘iz seni o‘ylayman, yolg‘iz.

Shoirlarni o‘qiyman ko‘p bor,
Misralari umrim bayoni.
Sarhadi yo‘q dengizdek, dildor,
Yo‘qdir senga ishqim poyoni...

Shom mahali Ayyub Sulton maydonidan uncha uzoq bo‘lmagan Nishanji Mustafo Posho masjidiga bordik. Masjid imomi Miqtad Xo‘ja degan kishi ekan. O‘zbekistondan kelganimizni eshitib, behad sevindi. Mamlakatimizda bo‘layotgan islohotlardan xabardor va mamnun ekanini izhor qildi.

— Ayniqsa, ulug‘ ajdodlarimiz, xususan, naqshbandiya tariqati ulamolari qabrini obod qilayotganlaringiz eng ulug‘ ishdir, — dedi Miqtad Xo‘ja so‘zida davom etib. — Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Islom sivilizatsiyasi markazlari tashkil etilgani olamshumul voqeadir. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf nomida jome masjid qurilganini eshitib sevindik.

Biz olis Turkiyada o‘z yurtimiz haqida bunday maqtov va e’tiroflarni ko‘p eshitdik va bundan faxrlandik. Ilohim, yurtimizga, uning tinchligiga ko‘z tegmasin, deya yurak-yurakdan duolar qildik.

“Yangi O‘zbekiston” va “Правда Востока” gazetalari tahririyati” DUK

MUASSIS:
O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi

Bosh muharrir:
Salim DONIYOROV

Tahririyatga kelgan qo‘lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahifalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga “SHARQ” NMAK mas’ul.
Bosmaxona telefoni: (71) 233-11-07

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro‘yxatga olingan.
Nashr indeksi — 236. **Buyurtma** G-646.
44212 nusxada bosildi.
Hajmi — 3 taboq. Ofset usulida bosilgan. **Qog‘oz bichimi** A2.
Bahosi kelishilgan narxda.

“SHARQ” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasida chop etildi.Bosmaxona manzili: Toshkent shahri, Buyuk Turon ko‘chasi, 41-uy.

Navbatchi muharrir: Bashorat Yunusova
Dizayner: Xurshid Abdullayev

Manzilimiz: 100029,
Toshkent shahri,
Matbuotchilar ko‘chasi, 32-uy

Topshirildi — 00:10

Qabulxona: (71) 233-56-33 Devonxona va e’lonlar: (71) 233-70-98 E-mail: info@yuz.uz Veb-sayt: www.yuz.uz: (71) 233-47-05